**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

«Pedagogika va psixologiya» kafedrasi
**Bakiyeva S.N., Mavlonov J.X., Tagirova N.V.**

# "PSIXOLOGIYA"

fanidan - 5140900 «Kasb ta`limi» bakalavriat yo`nalishlari uchun amaliy mashg’ulotlarni bajarish bo`yicha

## USLUBIY KO’RSATMA

**Buxoro–2010**

**TAQRIZCHILAR**:

p.f.n.. dots. Axmedjonov M.M.
p.f.n., dots.. Xo'jaev B.Q.

Ko'rsatma kafedra yig'ilishida muhokama qilinib, uslubiy ko'rsatma sifatida chop etishga tavsiya etilgan. ( *1 son* bayonnoma *28 avgust 2010 yil*).

Ko'rsatma institut uslubiy kengashida muhokama qilinib, uslubiy ko'rsatma sifatida chop etishga ruxsat berildi. (_____son bayonnoma _________ 200_y)

Ushbu uslubiy ko'rsatma «Psixologiya» fani bo'yicha amaldagi dastur va talablar asosida tuzilgan. Ko'rsatmada kasbiy ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun «Psixologiya» fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, mashg'ulot rejalari. psixodiagnostik metodikalar va amaliy topshiriqlar berilgan.

# MUNDARIJA

Kirish 4
Мавзу 1. UMUMIY PSIXOLOGIYANING PREDMETI. 5
Мавзу 2. UMUMIY PSIXOLOGIYANING METODLARI. 5
Мавзу 3. PSIXIKANING PAYDO BO’LISHI VA RIVOJLANISHI. 6
Мавзу 4. FAOLIYAT. 7
Мавзу 5. SHAXS PSIXOLOGIYASI.. 8
Мавзу 6. MULOQOT 11
Мавзу 7. GURUH VA JAMOA PSIXOLOGIYASI. 11
Мавзу 8. O’QUVCHILAR JAMOASIDA SHAXSLARNING O’ZARO MUNOSABATINI ANIQLASH. 12
Мавзу 9. DIQQAT. 17
Мавзу 10. SEZGI 19
Мавзу 11. IDROK. 20
Мавзу 12. XOTIRA. 20
Мавзу 13. XAYOL . 23
Мавзу 14. TAFAKKUR. 24
Мавзу 15. EMOSIYA VA HIS-TUYG’ULAR 30
Мавзу 16. IRODA. 30
Мавзу 17. TEMPERAMENT. 31
Мавзу 18. XARAKTER. 36
Мавзу 19. O’QUVCHI SHAXSINI O’RGANISH VA UNGA PSIXOLOGO-PEDAGOGIK XARAKTERISTIKA YOZISH. 39
Мавзу 20. QOBILIYAT. 40
Мавзу 21. O’QUV GURUHINI O’RGANISH. 44
Мавзу 22. YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING PREDMETI. 45
Мавзу 23. SHAXS SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT MUAMMOLARI. 45
Мавзу 24. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI. 46
Мавзу 25. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI. 47
Мавзу 26. O’SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK TARAQQIYOT. 47
Мавзу 27. O’SPIRIN SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. 48
Мавзу 28. TARBIYA PSIXOLOGIYASI . 52
Мавзу 29. TA’LIM PSIXOLOGIYASI. 52
Мавзу 30. O’QITUVCHI PSIXOLOGIYASI. 53

# Kirish

Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning talablarini amalga oshirish borasida ta'lim muassasalarida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda oliy ta'limni qayta qurish, uni ishlab chiqarish bilan yanada ko'proq yaqinlashtirish ishlari olib borilayotgan bir sharoitda fan va nazariyaga asoslangan bilimga, amaliy malakalarga ega bo'lgan va yangi zamonaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila olishga layoqatli mutaxassislar tayyorlash yanada dolzarblashadi.

Psixologiyadan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar talabalarning o'z-o'zini tarbiyalab borishi va mustaqil bilim olishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Seminar va amaliy mashg'ulotlarda talabalarning shaxs, ijtimoiy-psixologik hodisalar haqidagi xususiy qarashlari shakllanadi. Talabalar shaxs psixologiyasiga, bilish jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlar, pedagogik faoliyat psixologiyasiga oid qonuniyatlarni mustaqil o'rganadilar. Psixologik adabiyotlarda aks ettirilgan nazariy masalalar, talabalarning o'tilgan mavzularga oid bilimlari, mustaqil ishlari, tayyorlagan referatlari hamkorlikda muhokama qilinadi.

Tajriba mashg'ulotlarida talabalar bilan psixologik qonuniyatlarni aniqlashga doir o'tkazilgan tajribalar orqali ularning psixik hodisalarga tegishli nazariy bilim va tushunchalari amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Mazkur ko'rsatmalar pedagoglar va talabalarga «Psixologiya» fanidan seminar va amaliy mashg'ulotlarini samarali tashkil etish borasidagi ishlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishga yordam berish maqsadida tayyorlangan.

## Мавзу 1. UMUMIY PSIXOLOGIYANING PREDMETI.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalar bilan psixologiya fanining tarixiy taraqqiyoti, fan sifatida yuzaga kelishi, ilmiy psixologiyaning nazariy asoslari, uning asosiy printsiplari va vazifalari to'g'risida fikr almashish. Ularning faoliyat jarayonidagi ahamiyatini talabalar tomonidan tushunilishiga erishish.

### MASHG'ULOT REJASI.

1.Psixologiyaning predmeti va fan sifatida rivojlanish bosqichlari.
2.Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.
3.Psixika va ong. Miya va psixika muammosi.
4.Psixologiyaning fan sifatidagi vazifalari.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2.Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4.Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5.Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6.Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.
7. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.

## Мавзу 2. UMUMIY PSIXOLOGIYANING METODLARI.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalar bilan birgalikda psixologiya fanining ilmiy tekshirish metodlarini tahlil qilish va ularni talabalar tomonidan amaliyotda qo'llana olinishini ta'minlash.

### MASHG'ULOT REJASI.

1.Hozirgi zamon psixologiya fanining tuzilishi. Psixologiya fanining asosiy sohalari.
2.Psixologik nazariyalar yo'nalishlari.
3.Psixologiya fanining asosiy printsiplari (tamoyillari).
4. Psixodiagnostika va psixokorrektsiya to'g'risida tushuncha.
5.Psixologiya fanining asosiy ilmiy tekshirish metodlari
   a) kuzatish metodi

b) eksperiment metodi
v) suhbat metodi

6.Psixologiya fanining yordamchi ilmiy tekshirish metodlari.
a) egizaklar metodi
b) longityud metodi
v) test metodi
g) anketa metodi
e) faoliyat mahsulini o'rganish metodlari

7.Psixologik ilmiy tekshirish bosqichlari.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.
7. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.

## Мавзу 3. PSIXIKANING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarni psixikaning evolyutsion rivojlanishi qonuniyatlari bilan tanishtirish. «Seskanuvchanlik» , «Instinkt», «Ko'nikma», «Hayvonlarning aqliy hatti-harakatlari» va «Inson ongi» tushunchalarini tahlil qilish.

**MASHG'ULOT REJASI.**

1.Psixika – materiyaning evolyutsion taraqqiyoti mahsuli sifatida. Seskanuvchanlik, tropizm, sezuvchanlik tushunchalari.
2.Hayvonolarning instinktiv hatti-harakatlari.
3. Hayvonlarning individual orttirilgan hatti-harakatlari (ko'nikmalar).
4. Hayvonlarning aqliy hatti-harakatlari.
5.Inson ongi va uning xarakteristikasi.
6.Inson va hayvonlar psixikasining asosiy farqlari.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.

2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.
7. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.

## Мавзу 4. FAOLIYAT.

**Mashg'ulotning maqsadi**: Talabalarni shaxsning ichki va tashqi (psixik va jismoniy) faolligi shakli bo'lgan shaxs faoliyatining psixologik mohiyati bilan tanishtirish. Pedagogik va o'quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishning psixologik mexanizmlarini o'rgatish. «faoliyat», «motiv», «maqsad», «ko'nikma», «malaka», «interiorizatsiya», «eksteriorizatsiya» tushunchalarini tahlil qilish. Faoliyatning asosiy turlarini (o'yin, o'qish, mehnat) qiyosiy o'rganish.

**MASHG'ULOT REJASI:**

1. Shaxs faoliyati, maqsadi va motivlari haqida tushuncha.
2. Faoliyatning tuzilishi.
3. Faoliyatni o'zlashtirish. Malaka, ko'nikma va odatlar.
4. Faoliyatning asosiy turlari: o'yin, o'qish va mehnat.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
4. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
5. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.
6. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.

## Мавзу 5. SHAXS PSIXOLOGIYASI..

**Mashg'ulot maqsadi:** Talablarni «shaxs», «individuallik», «individ» tushunchalari bilan tanishtirish..

## MASHG'ULOT REJASI.

1.Shaxs», «Individ», «Individuallik» tushunchalari va ularning mohiyati.
2. Shaxs to'g'risidagi nazariyalar.
3.Shaxsning psixologik tuzilishi
4.Shaxsning o'z-o'zini anglashi
5.Shaxsni o'rganish metodikalari.(O'z-o'zini baholash metodikasi)

### Foydalaniladigan adabiyotlar:


1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.
7. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.


## O'Z-O'ZINI BAHOLASH METODIKASI.

**Mashg'ulotning maqsadi:** . Talabalar bilan birgalikda o'z-o'zini baholash metodikasini o'rganish va qo'llash.

**O'Z-O'ZINI BAHOLASH METODIKASI.**

Tekshiriluvchiga 20 ta shaxsning xususiyatlarini anglatuvchi xususiyatlar beriladi. Tekshiriluvchi ularni «Ideal» shaxsda bo'lish darajasiga ko'ra ketma-ket yozadi. Buning uchun 1- o'rinda «Ideal» shaxsda eng yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim xususiyatni yozadi. Keyin undagi ikkinchi o'rindagi xususiyatni va h.k. Jadvalning oxirida esa «Ideal» shaxsda juda kam rivojlangan yoki bo'lmagan xususiyatlar yoziladi. Keyin esa shu tartibda o'zi uchun ro'yxat tuzadi. Ya'ni o'zida eng yaqqol rivojlangan xususiyatni birinchi o'rinda, keyin ikkinchisini va oxirida o'zida kam rivojlangan yoki bo'lmagan xususiyatlarni yozadi.

Navbatdagi ish. Tekshiriluvchi «Ideal» shaxs xususiyatlarning tartib raqamlarini jadvalning «Ideal» ustuniga ko'chiradi, o'zinikini esa «O'zimda»

ustuniga ko’chiradi (jadvalga qarang: «Ko’ngilchanlik» ideal ro’yxatda 5- o’rinda, tekshiriluvchining o’zida esa 1-o’rinda bo’lgan).

Keyin esa xislatlar raqami orasidagi farqlarni topib (ideal xislatlar raqamidan o’zidagi xislatlar (yoki aksincha) raqamini ayirib «d» ustunga yozadi. Hosil bo’lgan har bir son kvadrati keyingi «$d^2$» ustuniga yoziladi.

Bu ustundagi sonlar yig’indisi topilib, ustunning ostiga yozib quyiladi.

O’z-o’zini baholash quyidagi formula asosida topiladi:

$$r = 1 - 6 \frac{\sum d^2}{(n^2 - n)n}$$

Bizning misolimizda xususiyatlar soni 20 ga teng. Shu sababli quyidagi amalni bajarish yetarli:

$$r = 1 - 0{,}00075 * \sum d^2$$

r= o’z-o’zini baholash koeffitsienti ( Pirson bo’yicha korrelyatsiya).

d= ideal va shaxsda belgilangan xususiyatlar raqamlari orasidagi ayirma.

$d^2$ = ayirma ($d^2$ ) ning kvadratlari yig’indisi.

n= xususiyatlar soni. ( p=20 )

**Baholash mezonlari:**

0,40 - past baholash; 0,60 - o’rta; 0,70 - yuqori baholash

**NAMUNA.**

| Ideal | Shaxs xislatlari | Turkum | | |
|---|---|---|---|---|
| | | O’zimda | d | $d^2$ |
| 1 | Jasurlik | 8 | 7 | 49 |
| 2 | Sabr toqatlilik | 15 | 13 | 169 |
| 3 | Qat’iylik | 20 | 17 | 289 |
| 4 | Tashabbuskorlik | 9 | 5 | 25 |
| 5 | Ko’ngilchanlik | 1 | 4 | 16 |
| 6 | Qiziquvchanlik | 16 | 10 | 100 |
| 7 | ehtiyotkorlik | 10 | 3 | 9 |
| 8 | Xushchaqchaqlik | 13 | 5 | 25 |
| 9 | Odillilik | 12 | 3 | 9 |
| 10 | O’jarlik | 5 | 5 | 25 |
| 11 | Injiqlik | 4 | 7 | 49 |
| 12 | Sovuqqonlik | 18 | 6 | 36 |
| 13 | Asabiylik | 2 | 11 | 121 |
| 14 | Badjahllilik | 7 | 7 | 49 |
| 15 | Tortinchoqlik | 6 | 9 | 81 |
| 16 | Beparvolik | 19 | 3 | 9 |
| 17 | Sustlik, bo’shanglik | 17 | 0 | 0 |
| 18 | Yalqovlik | 14 | 2 | 4 |
| 19 | Qat’iyatsizlik | 11 | 8 | 64 |
| 20 | Vahimachilik | 3 | 17 | 289 |

| | $\sum d^2$ | 1418 |
|---|---|---|

## SHAXSNING O’ZIGA BERGAN BAHOSI, GURUHNING REAL BAHOSI VA GURUHNING EHTIMOL BAHOSINI SOLISHTIRISH.

Sinaluvchi so’zlar ro’yxatini ko’rib chiqib, ulardan ikki qatorga 20 tadan so’z yozib chiqadi. Birinchi qatorga sinaluvchi o’zining xislatlarini oshib borish tartibida yozadi (oldingi tajribadagidek).

Ikkinchi qatordagi so’zlar esa sinaluvchining fikriga ko’ra sinaluvchi haqida guruhning tasavvuri va tushunchasini tashkil etadi. Ya’ni uning fikricha guruh unda qaysi xususiyatni birinchi o’rinda (yaqqol rivojlangan), qaysisini ikkinchi o’rinda va h.k. deb hisoblaydi va shundan kelib chiqib ro’yxat tuzadi (uni guruh shunday baholaydi deb hisoblaydi).

Guruhning qolgan a’zolari o’z bilganlaricha sinaluvchining fazilatlarini ifodalovchi so’zlar qatorini tuzadilar, so’zlarni joylashtirish tartibi avvalgiday bo’ladi.

Keyin esa bitta umumiy qator tuziladi. Qatordagi har bir so’zning tartib raqami bir vaqtning o’zida daraja ko’rsatkich ham bo’lganligidan har bir fazilatning daraja ko’rsatkichlarini olib, uning o’rta arifmetik qiymati topiladi.

Masalan, sinaluvchining «Xushchaqchaqlik»ligini talabalardan biri 2-daraja bilan boshqasi 5, uchinchisi 4, to’rtinchisi 1-daraja bilan va hokazo baholagan. Bu daraja ko’rsatkichlari jamlanadi (2+5+4+1+......+) va sinaluvchini baholovchi guruh a’zolari soniga bo’linadi.

So’ng tuzilgan uch qator:
1) O’O’B - o’z-o’zini baholash;
2) GETB - guruh ehtimol tutgan bahosi;
3) UGB - umumiy guruh bahosi
solishtiriladi.

**Bajarilgan topshiriq natijalarini ishlab chiqish.**

Olingan uch qator so’zlar asosida grafik tuziladi. Bunda bu nuqtalarni bir-biriga muvofiq holda birlashtirib O’O’B - GETB va UGBlarni ifodalovchi uchta chiziq chiziladi va taqqoslanadi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Davletshin M.T., To’ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.

6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.
7. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.

## Мавзу 6. MULOQOT

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarni shaxslararo munosabat va uning vositalari (til va nutq), muloqot turlari va funktsiyalari bilan tanishtirish.. «Til», «nutq», «kommunikatsiya» «so'zning ma'nosi», tushunchalarini tahlil qilish.

### MASHG'ULOT REJASI:

1.Muloqot haqida umumiy tushuncha.
2.Shaxsning shakllanishida muloqotning o'rni.
3.Shaxslararo muomala jarayonida noverbal vositalar (mimika, pantomimika, tin olish, intonatsiya, hatti-harakat va h.k.)
4.Muloqot jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish.
5.Pedagogik muloqot.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
4. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
5. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.
6. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.

## Мавзу 7. GURUH VA JAMOA PSIXOLOGIYASI.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarni guruh va jamoa haqidagi nazariyalar bilan tanishtirish. Guruh va jamoaning psixologik mohiyatidagi farqlarga e'tibor berish. Guruh va jamoadagi ijtimoiy-psixologik hodisalarni psixologik o'rganish. Guruh yetakchisi (rasmiy va norasmiy) (lideri), boshqalarning ta'siriga beriluvchanlik va berilmaslik, jamoa ruhiga to'g'ri keladigan qadriyat, guruhlardagi tabaqalanish va h.k. tushunchalarini tahlil qilish.

### MASHG'ULOT REJASI.

1.Guruh va jamoa haqida tushuncha va ularning turlari.

2.Kichik guruhning ichki tuzilishi.
3.Guruhlardagi ijtimoiy-psixologik hodisalar (liderlik, ta'sirga beriluvchanlik, konformizm, attityud va h.k.).
4.Guruh va jamoani o'rganish metodlari.

## Мавзу 8. O'QUVCHILAR JAMOASIDA SHAXSLARNING O'ZARO MUNOSABATINI ANIQLASH.

**Sotsiometriya metodikasi va uni o'tkazish.**

Sotsiometriya so'zi o'lchash, o'rganish (sotsio - jamoa, metriya -o'lchash) degan ma'noni anglatadi.

Sotsiometrik metodning asoschisi – amerikalik mikrosotsiolog olim Djon Morenodir. Sotsiometrik so'rov usuli bir qancha kamchilik va nuqsonlarga ega bo'lishiga qaramay keng psixologik amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan metodikalardan biridir.

**Ishning bajarilishi.** Bu metod yordamida jamoa yoki guruhni o'rganish uchun guruh a'zolariga savol beriladi. Bu savol sotsiometrik mezon deb ataladi. Sotsiometrik mezon guruh hayoti uchun muhim bo'lishi, guruh hayotini aks ettirishi kerak.

Masalan maktab o'quvchilari uchun «Siz sinfdoshlaringizdan kim bilan bir partada o'tirishni hohlaysiz?» degan mezon muhimdir. Ammo kollejlar yoki institut talabalar guruhida bu muhim emasdir.

Misol:

Bir partada o'tirish uchun o'rtoq tanlash metodi. Tekshirish muvaffaqiyatli o'tishi uchun osoyishta, ishchi sharoit zarur. O'qituvchi (talaba) o'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan topshiriqni aniq tushuntiradi:

Bolalar, kelgusi chorakdan sizlarni partalarga o'z hohishlaringiz bilan o'tirtirmoqchimiz. Hozir bir varaq qog'oz olib, Siz kim bilan birinchi navbatda birga o'tirishni hohlasangiz uning familiyasini yozing, bordi-yu biz Sizni o'zingiz tanlagan kishi bilan o'tirgiza olmasak, u vaqtda yana kim bilan o'tirishni istardingiz, o'sha sinfdoshingizning familiyasini yozing. Basharti birinchisi bilan ham, ikkinchisi bilan ham o'tirishingizning iloji bo'lmay qolsa u vaqtda qaysi sinfdoshingiz bilan o'tirgan bo'lardingiz. Shuning familiyasini yozing.

1.________________________
2.________________________
3.________________________

endi xuddi shu tartibda kim bilan o'tirishni hohlamacligingizni ko'rsating (agar shundaylar bo'lsa).

1.________________________
2.________________________
3.________________________

To'g'ri mezon tanlash uchun guruhni o'rganish, ularning hayotida nima muhim ekanligini bilish zarurdir. Tanlanayotgan mezon guruhni qaysi faoliyat jarayonida o'rganishni maqsad qilib qo'yganligiga bog'liqdir (o'yin, o'qish, mehnat).

Ish oson bo'lishi uchun o'quvchilarga savolni kartochka ko'rinishida tayyorlab beriladi.

**Savollar kartochkasi**

| | Sotsiometrik mezon (savol) | Hohlayman (Ismi yoki familiyasini ko'rsating) | Hohlamayman (Ismi yoki familiyasini ko'rsating) |
|---|---|---|---|
| 1 | Agar sizning guruhingizni qayta tuzmoqchi bo'lsalar, siz guruhda kimlar bilan birga qolishni hohlaysiz? Kim bilan birga o'qishni hohlamaysiz? | 1<br>2<br>3<br>4 | 1<br>2<br>3<br>4 |
| 2 | Siz uchun qiyin bo'lgan daqiqalarda kimlarga murojaat qilar edingiz? Kimga murojaat qilishni hohlamaysiz? | 1<br>2<br>3<br>4 | 1<br>2<br>3<br>4 |
| 3 | Yotoqxonada o'z guruhdoshlaringizdan kim bilan bir xonada yashashni hohlar edingiz? Kim bilan hohlamaysiz? | 1<br>2<br>3<br>4 | 1<br>2<br>3<br>4 |

So'rov ma'lumotlari jadval matritsa (sotsiometriya jadvali) tarzida rasmiylashtiriladi.

**Sotsiometriya jadvalining ko'rinishi**

| № | Kim tanlayapti | Kimni tanlayapti | | | | | | | | | | | | U tanladi | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | + | - | ∑ |
| 1. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 3. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 5. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 6. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 7. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 8. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 9. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 10. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 11. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 12. | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Uni tanladilar | + | | | | | | | | | | | | | | | |
| | - | | | | | | | | | | | | | | | |
| | ∑ | | | | | | | | | | | | | | | |
| O'zaro tanlashlar | | | | | | | | | | | | | | | | |

Tanlovda kimni afzal ko’rish tartibi «1,2,3… » raqamlari bilan, istamaslik hollari «-1,-2,-3 …» belgisi bilan ifodalanadi.

Sotsiometriya jadvali to’ldirilgandan keyin o’zaro tanlashlar aniqlanib, ular aylanaga olinadi. Masalan, bir o’quvchi ikkinchisini tanlab, ikkinchisi ham birinchini tanlagan bo’lsa, bu o’zaro tanlashdir. O’zaro tanlashlar aylanaga olish bilan belgilanadi.

Navbatdagi vazifa jadvaldagi barcha natijalarni jadval pastidagi qatorlarga yoziladi va ular tahlil qilinadi.

Avvalambor guruhdagi liderlar (eng ko’p tanlanganlar), guruh befarq qaraydiganlar (hech qanday tanlashga ega bo’lmaganlar), salbiy tanlanishga ega bo’lganlar aniqlanadi.

Olingan natijalarni tahlil qilayotganda har bir o’quvchi mavqeining sababini bilishga harakat qilish kerak. (Nima uchun lider, nima uchun guruh a’zolari yoqtirmaydi va h.k.). Bu borada asosiy e’tiborni salbiy tanlanishga ega bo’lganlarga qaratish kerak.

Guruhning psixologik xususiyatlarini chuqur o’rganish uchun guruhdagi guruhchalar aniqlanadi. Buning uchun istalgan o’zaro tanlashga ega bo’lgan guruh a’zosining tartib raqami jadvalning ustuniga ham, qatoriga ham yoziladi. Keyin shu kishi bilan o’zaro tanlashga ega bo’lgani ishtirokchi raqami ham xuddi shu tartibda yoziladi. Shu tariqa o’zaro tanlashlar davom ettiriladi.

Paydo bo’lgan kichik guruh a’zolarining o’zaro munosabatlarini bilish uchun sotsiogramma tuziladi. Sotsiogramma tuzishda quyida berilgan shartli belgilardan foydalaniladi.

| | | | |
|---|---|---|---|
|  | -Kimni tanlayapti; |  | - bir tomonlama salbiy tanlash; |
|  | - Kim tanlayapti; |  | - O’zaro ijobiy tanlash; |
|  | - ketma-ket tanlash; |  | - O’zaro salbiy tanlash; |
|  | -bir tomonlama ijobiy tanlash; |  | - jinsni belgilash (er va ayol) . |

Tanlov bo’yicha olingan ma’lumotlar sotsiogramma shaklida grafik asosida ifodalanadi (rasmga qarang).




Tanlov sababini aniqlash uchun har bir talaba bilan yakka tartibda suhbat o'tkaziladi. Jamoadagi shaxslararo munosabatlarni yaxshilash maqsadida va unda har bir talabaning mavqeini, ayniqsa «qabul qilinmaganlar» va «rad etilganlar»ning mavqeini mustahkamlash uchun tegishli tushuntirishlar beriladi, ularning miqdoriy va ijobiy sifatlarini ochib berishga alohida e'tibor jalb qilinadi.

Tahlil to'liq bo'lishi uchun aniqlangan har bir kichik guruhning sotsiogrammasi alohida chiziladi va tahlil qilinadi.

Guruhning jipsligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish taklif qilinadi:

$$K_{жип.} = \frac{V^{+} - V^{-}}{n\,(n-1)}$$

**$K_{jip}$. – jipslik koeffitsienti,**
**$V^{+}$ , $V^{-}$** - musbat va manfiy o'zaro tanlashlar soni,
**n** - guruh a'zolari soni,
Agar tanlashlar soni cheklangan bo'lsa formuladagi **n(n-1)** o'rniga **K*n** quyiladi.

$$K_{жип.} = \frac{V^{+} - V^{-}}{K * n}$$

**K** – tanlash mumkin bo'lgan a'zolar soni. Masalan, «3 kishini tanlang!» deyilgan bo'lsa, u holda **K =3.**

Sotsiometrik so'rovnoma yordamida olingan barcha materiallar guruhga yozilgan psixologo-pedagogik xarakteristikada aks ettiriladi.

## GURUH TALABALARINING O'Z JAMOASIGA BO'LGAN MUNOSABATINI O'RGANISH.

**Tekshirish maqsadi**: talabalar o'z kursdoshlariga va guruhga qanday munosabatdaligini aniqlash.

**Tekshirish metodikasi:**

Talabalarga quyidagi savolga javob yozish va jadvalni to'ldirish taklif etiladi.

Bajarish tartibi. Har bir talaba quyidagi ko'rsatilgan jadvalni chizib oladi va unga baholanishi kerak bo'lgan 10 ta xususiyatni yozadi. Keyin jadvalni to'ldirishga kirishadi. Avval baholanayotgan xususiyat bo'yicha kimni (baholanayotgan) namuna qilib ko'rsatish mumkinligini jadvalning oxirgi ustuniga yozadi. Keyin guruh talabalarning qancha qismi shu xususiyatga ega ekanligini belgilaydi.(+ belgisini qo'yadi.)

Quyidagi sifatlar sizning guruhingiz talabalarida qanday rivojlangan?

| № | Shaxs sifatlari | Qanday xususiyatlarga ega | | | | Kimni namuna qilib ko'rsatasiz |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Guruhning barcha tala-balari | Ko'pchi-lik tala-balar | Ba'zi tala-balar | Bir ikki kishi | |
| 1 | Kasbga doir bilimlarni o'zlashtirishi juda mustahkam; | | | | | |
| 2 | Kasbga doir ko'nikma va malakalar yaxshi rivojlangan; | | | | | |
| 3 | Qobiliyatlilik va bilimlilik; | | | | | |
| 4 | Mustaqil ishlay olish; | | | | | |
| 5 | Umumiy madaniyatliligi; | | | | | |
| 6 | Guruh va jamoa hayotini qiziqarli ishlar bilan boyitish; | | | | | |
| 7 | O'rtoqlarni tushuna olish, ularga yordam berishga tayyorligi; | | | | | |
| 8 | Oliyjanoblik va haqqoniyligi; | | | | | |
| 9 | Sabr toqatliligi, o'zini tuta bilishi; | | | | | |
| 10 | Ijtimoiy faolligi; | | | | | |

**XULOSA CHIQARISH.**

BARCHA TALABALARNING TO'LDIRGAN JADVALLARI TAQQOSLANADI.

1.Har bir talaba o'z guruhini qanday baholashi aniqlanadi. Agar talaba 3-ustunga ko'p «+» qo'ygan bo'lsa, u o'z guruhini yuqori baholaydi, agar 6-ustunga ko'p «+» qo'ygan bo'lsa past baholaydi.

2.Har bir ustun bo'yicha guruh talabalari qo'ygan «+» belgilari hisoblanib, o'rtacha arifmetik qiymat topiladi. Bu guruh talabalari o'z guruhini qanday baholanganligini ko'rsatadi.

3.Guruh talabalarida qaysi xususiyatlar yaxshi, qaysi birlari esa kam rivojlanganligini aniqlash. Ish oxirida xulosa yoziladi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
3. Xoxlova L.P. Talabalar uchun psixologiyadan amaliy topshiriqlar. T., 1992
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.

## Мавзу 9. DIQQAT.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarga diqqat haqida tushuncha berish. Talabalar bilan diqqatning fiziologik mexanizmlari va turlarini tahlil qilish.

### MASHG'ULOT REJASI

1. Diqqat haqida tushuncha.
2. Diqqatning fiziologik mexanizmlari.
3. Diqqatning turlari
4. Diqqatning asosiy xususiyatlari.
5. Diqqatning taqsimlanishi va barqarorligini turli metodikalar (korrektur sinov, diqqatning taqsimlanishi o'rganish uchun sonli jadvallar) yordamida o'rganish.

### DIQQATNING KO'CHISHINI O'RGANISH

Aylana va kvadrat shakllari ichida yozilgan raqamli jadval yordamida diqqatning ko'chishini o'rganish.

Foydalangan materiallar: Sonli jadval. Aylanadagi raqamlar 1 - 25 gacha yozilgan, kvadratdagilar esa 1-24 gacha. Ular tasodifiy ravishda joylashtirilgan.

Ishning borishi: Tajriba 3 marta (seriya) o'tkaziladi.

1. seriya. 1 holda tekshiriluvchi jadvaldan 1-25 gacha bo'lgan aylanaga olingan raqamlarni tartib bo'yicha (1,2,3,4,......h.k.) ko'rsatadi.

Ishni bajarishga ketgan vaqt (sek.) belgilanadi.

2 seriya. 2 chi marta tekshiriluvchi kvadratdagi raqamlarni teskari tartibda ko'rsatadi. (24, 23, 22, … va h.k.)

3 seriya. Tekshiriluvchi bir vaqtning o'zida har ikkala shakllardagi sonlarni ko'rsatadi. Bunda, aylanadagilar o'sib borish tartibida, kvadratdagilar kamayib borish tartibida (Aylanadagi 1, kvadratdagi 24, aylanadagi 2, kvadratdagi 23 va h.k.).

Tajriba davomida eksperimentator ketgan vaqt va tekshiriluvchi tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarni yozib boradi va ularni quyidagi jadvalga kiritadi.

| Ko’rsatgich | 1 seriya | 2 seriya | 3 seriya | 1+2 seriyalar yig’indisi | (1+2) –3 seriyalar |
|---|---|---|---|---|---|
| Sarflangan vaqt | | | | | |
| Xatolar | | | | | |

3 seriyani bajarishga ketgan vaqtdan 1 va 2 chi seriyani bajarishga ketgan vaqtlar ayriladi. Ayirma diqqatning ko’chishga ketgan vaqtini ko’rsatadi.




**DIQQATNING BO’LINISHINI ANIQLASH METODIKASI.**

1. Sinaluvchi harflarni alfavit tartibida aytadi va har bir harfdan so’ng ma’lum bir sonni ham qo’shib aytadi. Bunda A harfiga birni undan keyingi harflarga uch sonini qo’shib, ya’ni a-1, b - to’rt, v- yetti, g-o’n, d - o’n uch va shu tarzda «F» harfigacha aytiladi, sarflangan vaqt doskaga yozib qo’yiladi.

Mazkur tajribani yana uchta talaba takrorlaydi.

2. Sinaluvchi doskaga 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni yoza boshlaydi va bir vaqtning o'zida bu sonlarni ovoz chiqarib teskarisiga 20 dan 1 gacha aytadi.

3. Sinaluvchi kitobdan biror narsani ovoz chiqarib o'qiydi va ayni paytda doskaga boshqa bir narsani yozadi.

Qolgan talabalar bu ishlarning qay darajada oson va bir vaqtda bajarilishini kuzatib boradilar. Mazkur tajribani yana 3 talaba takrorlaydi.

eksperimentator diqqatning bo'linishiga doir bu tajribalar yakunini talabalar hamkorligida umumlashtiradi.

Keyin talabalar juftliklarga bo'linadilar. Ulardan biri eksperimentator, ikkinchisi tekshiriluvchi bo'ladi. Sinaluvchi yuqoridagi tajribalarni bajaradi, eksperimentator ishning bajarilishini kuzatib boradi va natijalarni qayd qiladi. Keyin ular o'rin almashadilar. Juftliklarda o'tkazilgan tajribalarning natijalari tajriba ishi tariqasida topshiriladi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Рогов Е.И. «Настольная книга практического психолога» М. «Владос» 1999.
5. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
6. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
7. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 10. SEZGI

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalar bilan shaxsning hissiy bilishining boshlang'ich shakli bo'lgan sezgi jarayoni, sezgilar haqidagi nazariyalar va sezgilarning qonuniyatlari to'g'risida fikr almashish. Talabalar bilan «adaptatsiya», «sensibilizatsiya», «sinesteziya», «sezgirlik chegaralari» haqidagi tushunchalarni tahlil qilish.

### MASHG'ULOT REJASI

1. Sezgilar haqida umumiy tushuncha
2. Sezgilarning umumiy xususiyatlari va turlari.
3. Sezgilarning umumiy qonuniyatlari (psixofiziologik).
4. «Adaptatsiya», «sensibilizatsiya», «sinesteziya» hodisalari.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 11. IDROK.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalar bilan idrok jarayoni, idrok haqidagi nazariyalar va idrokning xususiyatlari, qonuniyatlari to'g'risida fikr almashish, olingan bilimlarni talabalar tomonidan amaliyotda qo'llana olinishiga erishish. «Appertseptsiya», «gallyutsinatsiya», «illyuziya» , hodisalarini tahlil qilish.

**MASHG'ULOT REJASI**

1. Idrok haqida umumiy tushuncha
2. Idrokning umumiy xususiyatlari
3. Idrokning turlari.
4. «Appertseptsiya», «gallyutsinatsiya», «illyuziya» , hodisalari.

## Мавзу 12. XOTIRA.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalar bilan xotira, xotira to'g'risidagi nazariyalar, uning jarayonlari, turlari va turlararo bog'liqlik haqida fikr almashish.. esga olib qolish, unutish, esda saqlash va esga tushirish jarayonlarini tahlil qilish va ularni talabalar tomonidan faoliyat jarayonida qo'llana olinishini ta'minlash.

**MASHG'ULOT REJASI.**

1. Xotira haqida tushuncha.
2. Xotira turlari.
3. Xotira jarayonlari.
4. Xotiraning individual psixologik farqlari.
4. Xotira jarayonida assotsiatsiyalarning turli ahamiyati. Mnemotexnika.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.

3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## XOTIRA JARAYONIDA ASSOSIASIYALARNING TURLI AHAMIYATI.

Ko’rsatma: Daftaringizga 1 dan 50 gacha tartib raqamlarni qo’yib chiqing. Men sizlarga 50 juft so’zlarni bir marta o’qib beraman.

Birozdan keyin men birinchi so’zlarni takror o’qib beraman. Siz esa ularning juftini (ikkinchisini) tegishli raqamga yozib borishingiz lozim.

MATERIAL: 50 juft so'z.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Barmoq - tirnoq | Butun-bo'lak | 26 | Bosh-soch | Butun-bo'lak |
| 2 | Lolaqizg'aldoq - qizil | Predm.-xusus | 27 | Ko'mir-qora | Predm.-xusus |
| 3 | Cho'l - qo'ng'iroq | | 28 | Gugurt-ochlik | |
| 4 | Maktab - tanbeh | Predm.-xusus | 29 | Shirin-achchiq | Qarama-qarshilik |
| 5 | Shamol -bo'ron | o'xshashlik | 30 | Yomg'ir-loy | Sabab-oqibat |
| 6 | Soat -strelka | Butun-bo'lak | 31 | Shahar-ko'cha | Butun-bo'lak |
| 7 | Qand - shirin | Predm.-xusus | 32 | G'ildirak-yumaloq | Predm.-xusus |
| 8 | Deraza - harf | | 33 | Qalin-olomon | |
| 9 | Baland - past | Qarama-qarshilik | 34 | Mukofot-nafrat | |
| 10 | Porox - portlash | Predm.-xusus | 35 | Quyosh-issiqlik | Sabab-oqibat |
| 11 | Ko'z - qorachig' | Butun-bo'lak | 36 | Poezd-vagon | Butun-bo'lak |
| 12 | O't - yashil | Predm.-xusus | 37 | Bo'tako'z-zangori | |
| 13 | Meva - tom | | 38 | Tutun-qoida | |
| 14 | Mukofot - Jazo | Qarama-qarshilik | 39 | Yaxshi-yomon | Qarama-qarshilik |
| 15 | Ayoz- sovuq | Predm.-xusus | 40 | Ish-charchash | Sabab-oqibat |
| 16 | Kitob - sahifa | Butun-bo'lak | 41 | Institut -auditoriya | Butun-bo'lak |
| 17 | Ustara - o'tkir | Predm.-xusus | 42 | Pat-engil | Predm.-xusus |
| 18 | Daftar - Yelkan | | 43 | Papiros-abajur | |
| 19 | Yorug' - qorongi | Qarama-qarshilik | 44 | Mardlik-qo'rqoqlik | Qarama-qarshilik |
| 20 | Yoz - issiq | Sabab-oqibat | 45 | O'qish-bilim | Sabab-oqibat |
| 21 | Uy – tom | Butun-bo'lak | 46 | Qo'l- kaft | Butun-bo'lak |
| 22 | Qor - oppoq | Predm.-xusus | 47 | Yo'l-uzoq | Predm.-xusus |
| 23 | Devor - chiroq | | 48 | Parovoz -simyog'och | |
| 24 | Sukunat - harakat | | 49 | Sovuq-issiq | Qarama-qarshilik |
| 25 | Zahar – o'lim | Sabab-oqibat | 50 | Yara-og'riq | Sabab-oqibat |

## NATIJALARNI TEKSHIRISH

Men juft so'zlarning 2 chisini o'qiyman. Agar siz 2 chi so'zni to'g'ri yozgan bo'lsangiz «+», noto'g'ri bo'lsa (yoki umuman yozmagan bo'lsangiz) «-» qo'ying. Hisoblash: Har bir so'z birikmalari guruhlari bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymat topiladi.

1. Butun-bo'lak (so'z – jumla);
2. Predmet- xususiyat (anor - nordon);
3. Tur – sinf (fizika – fan);
4. Kichik – katta (dengiz – okean);
5. Qarama – qarshilik (kun – tun);
6. Sabab – oqibat (qo'rqish – qochish);
7. O'xshashlik (dushman – raqib).

Xulosa: Talaba xulosada assotsiatsiyaning esga olib qolish samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi. Vazifada qaysi assosiatsiyalar ko'proq esda qolgani (soni va sababi) to'g'risida o'z fikrlarini bildiradi.

## Мавзу 13. XAYOL .

**Mashg'ulot maqsadi**: Talabalar bilan xayol jarayonining psixologik mohiyati, ularning mexanizmlari va amaliy faoliyatdagi o'rni to'g'risida fikr almashish. Xayol jarayonlarining kechishi, ularning kishi tanasida ro'y beradigan organik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini ko'rsatish. va ularning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish.

## MASHG'ULOT REJASI:

1. Xayol va uning turlari.
2. Xayol jarayonlari.
3. Xayol va organik jarayonlar.
4. Ijodiy va amaliy faoliyatda xayolning roli.

## Foydalaniladigan adabiyotlar:


1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Немов Р.С. «Практическая психология» М. «Владос» 1998.
5. Рогов Е.И. «Настольная книга практического психолога» М. «Владос» 1999.
6. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
7. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.

8. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 14. TAFAKKUR.

**Mashg’ulotning maqsadi:** Talabalar bilan tafakkur, uning jarayonlari va mantiqiy shakllari to’g’risida fikr almashish.. Ta’lim va tarbiya jarayonida tafakkur qonuniyatlarini hisobga olishning ahamiyatini ko’rsatish. Mashg’ulot davomida tafakkurning ijtimoiy xususiyatini ochib berish.

«Tafakkur», «tushuncha», «hukm», «xulosa» tushunchalarini tahlil qilish.

### MASHG’ULOT REJASI.

1. Tafakkur bilishning oliy shakli sifatida.
2. Tafakkur jarayonlarining psixologik xarakteristikasi.
3. Tafakkurning mantiqiy shakllari (tushuncha hukm, xulosa chiqarish).
4. Tafakkur xususiyatlari
5. Tafakkur turlarining psixologik xarakteristikasi

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Davletshin M.T., To’ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul’tetlar talabalari uchun ma’ruza matnlari. Buxoro, 1999.
7. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI O’RGANISH

Tafakkur xususiyatlarini o’rganish uchun E.F.Zeer tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim olishga bo’lgan qobiliyatni o’rganish metodikasi kiritildi.

Talabalar berilgan 5 guruh vazifalarni yechadi va har bir guruh topshiriqqa ketgan vaqtni va javoblarni javoblar varaqasida alohida qayd qilib boradi. Tajriba tugagandan keyin eksperimentator (tadqiqot o’tkazuvchi talaba) natijalarni tekshiradi va natijalar jadvalini to’ldiradi.

**JAVOBLARNI QAYD QILISH VARAQASI**

**Sinov sanasi:** __________

**Sinaluvchi haqidagi ma'lumotlar:**

| | |
|---|---|
| **1.** Familiyangiz, ismi-sharifingiz | |
| **2.** Tug'ilgan yilingiz (kun, oy, yil) | |
| 3. Jinsingiz: ***(aylanaga oling)*** | ***erkak*** ***Ayol*** |
| **4.** Viloyat va tuman (shahar) nomi: | |
| **5.** O'quv yurti nomi: | Guruh(sinf) |

**Sinov boshlangan vaqt: _________**

**I . Tushunchalarni TASNIFLASH (klassifikatsiya qilish).**

| Vazifa | Javoblar |
|---|---|
| 1.1. | |
| 1.2. | |
| 1.3. | |
| 1.4. | |
| 1.5. | |

**Sinov tugallangan vaqt: _________**

**II. Tushunchalar orasidagi MANTIQIY MUNOSABATLARNI topish.**

Bo'sh qatorga tushunchalar orasidagi **munosabat turini** ko'rsatuvchi raqamni yozing.

**Sinov boshlangan vaqt: _________**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2.1. | | 2.6. | | 2.11. | | 2.16. | |
| 2.2. | | 2.7. | | 2.12. | | 2.17. | |
| 2.3. | | 2.8. | | 2.13. | | 2.18. | |
| 2.4. | | 2.9. | | 2.14. | | 2.19. | |
| 2.5. | | 2.10. | | 2.15. | | 2.20. | |

**Sinov tugallangan vaqt: _________**

**III. Mantiqiy tahlil**

Bo'sh qatorga SONLAR KETMA-KETLIGINI davom ettiruvchi ikkita sonni yozing.

**Sinov boshlangan vaqt: _________**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3.1. | | 3.6. | |
| 3.2. | | 3.7. | |
| 3.3. | | 3.8. | |
| 3.4. | | 3.9. | |
| 3.5. | | 3.10. | |

**Sinov tugallangan vaqt: _________**

**IY. FAZOVIY TAFAKKUR**

**Sinov boshlangan vaqt: _________**

**Sinov tugallangan vaqt: _________**

**Sinov boshlangan vaqt: _________**

**4.1**. Ko'pburchakning uchlari SONI ____ ta.

**Sinov tugallangan vaqt: _________**

**4.2.**

**Sinov boshlangan vaqt: _________**

**W - tomon ___** shaklda aks ettirilgan. (**A,B,C,D** lardan bittasi)

**N - tomon___** shaklda aks ettirilgan. (**A,B,C,D** lardan bittasi)

**H - tomon ___** shaklda aks ettirilgan. (**A,B,C,D** lardan bittasi)

**Sinov tugallangan vaqt: _________**

**4.3**. Trapetsiya quyidagi ko'rinishdagi shaklga aylanadi (chizing).
**Sinov boshlangan vaqt: _________**
**Sinov tugallangan vaqt: _________**

**Y. Tafakkurning REFLEKSIVLIGI**

Bo'sh qatorga ANAGRAMMA da ifodalangan so'zlarni yozing.
**Sinov boshlangan vaqt: _________**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5.1. | | 5.6. | | 5.11. | |
| 5.5. | | 5.7. | | 5.15. | |
| 5.3. | | 5.8. | | 5.13. | |
| 5.4. | | 5.9. | | 5.14. | |
| 5.5. | | 5.10. | | 5.15. | |

**Sinov tugallangan vaqt: _________**
**Sinovga sarflangan umumiy vaqt: _________**

**Yuqorida yechilgan vazifalarning qiyinlik darajasini quyidagi keltirilgan jadvalda belgilang!**

| **Vazifaning qiyinlik darajasi** | **Vazifaning raqami** |
|---|---|
| Men uchun eng qiyini … | |
| Men uchun osonrog'i … | |
| Men uchun o'rtacha qiyinlikda … | |
| Men uchun oson … | |
| Men uchun juda oson … | |

**NATIJALAR** (eksperimentator tomonidan to'ldiriladi

| **Vazifalar** | **Topshi-riqlar soni (n)** | **To'g'ri javoblar soni (m)** | $\frac{m}{n}$ | **Shakllan-ganlik darajasi** | **Sarflan-gan vaqt (t)** | **Samara-dorlik** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| I . Tushunchalarni tasniflash. | 5 | | | | | |
| II. Tushunchalarning mantiqiy munosabati | 20 | | | | | |
| III. Mantiqiy tahlil | 10 | | | | | |
| IY.Fazoviy tafakkur | 3 | | | | | |
| Y. Tafakkurning refleksivligi | 15 | | | | | |
| **Umumiy natijalar** | 53 | | | | | |

## I. Tushunchalarni tasniflash (klassifikatsiya qilish)

Quyida berilgan tushunchalarni shunday ketma-ketlikda joylashtiringki, har keyingi tushuncha o'zidan oldingisini o'z ichiga olsin (yakkadan umumiyga).

1.1. Asr, yil, kun, oy;
1.2. Kvadrat, parallelogramm, romb, to'g'rito'rtburchak;
1.3. Muruvvat, detal, mashina, mexanizm;
1.4. Bob, kitob, mavzu, tom;
1.5. Pedagog, ziyoli, o'qituvchi, fizika o'qituvchisi.

## II. Tushunchalar orasidagi mantiqiy munosabatlarni topish.

Tushunchalar orasidagi munosabatlar quyidagi ko’rinishlarda bo’lishi mumkin:

1. Qism – butun (so’z – jumla);
2. Tur – sinf (fizika – fan);
3. Kichik – katta (dengiz – okean);
4. Qarama – qarshilik (kun – tun);
5. Sabab – oqibat (qo’rqish – qochish);
6. O’xshashlik (dushman – raqib).

Berilgan tushunchalar orasida qaysi munosabat turi mavjudligini aniqlang va uning raqamini javoblar varaqasida ko’rsating.

2.1. Detal – mashina;
2.2. Qismlarga bo’lish - yig’ish;
2.3. Elektron – atom;
2.4. O’qish – bilim;
2.5. Alyuminiy – metall;
2.6. Qisish – cho’zish;
2.7. O’zaro ta’sir – reaktsiya;
2.8. Asbob – qaychi;
2.9. Isitish – sovutish;
2.10. Erkinlik – mustaqillik;
2.11. Salqin – sovuq;
2.12. Mavzu – bob;
2.13. Aldash – ishonchsizlik;
2.14. Chin – haqiqat;
2.15. O’n – son;
2.16. Tinch holat – harakat;
2.17. Ishyoqmaslik – yalqovlik;
2.18. Nosozlik – halokat;
2.19. Varaq – kitob;
2.20. Plakat – ko’rgazmali qurol

.

### .III. Mantiqiy tahlil

Berilgan sonlar ketma-ketligi qanday qonuniyat asosida tuzilganini toping va (uning asosida) qatorni davom ettiruvchi ikkita son yozing.

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **3.1.** | 6 | 9 | 12 | 15 | 18 | 21 | | |
| **3.2.** | 1 | 2 | 4 | 8 | 16 | 32 | | |
| **3.3.** | 4 | 5 | 8 | 9 | 12 | 13 | | |
| **3.4.** | 3 | 4 | 12 | 5 | 6 | 30 | | |
| **3.5.** | 29 | 28 | 26 | 23 | 19 | 14 | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **3.6** | 16 | 8 | 4 | 2 | 1 | 12 | | |
| **3.7.** | 1 | 4 | 9 | 16 | 25 | 36 | | |
| **3.8.** | 21 | 18 | 16 | 15 | 12 | 10 | | |
| **3.9.** | 3 | 6 | 8 | 16 | 18 | 36 | | |
| **3.10.** | 2 | 4 | 6 | 6 | 12 | 14 | | |

### IY.Fazoviy tafakkur

**4.1**. Rasmdagi ko’pburchakning nechata uchi bor?



**4.2**. Rasmda berilgan detalning **W, N, H** tomonlarining har biri berilgan **A,B,C,D** shakllarning qaysi birida aks ettirilganini ko’rsating.




**4.3.** Rasmdagi **ABCD** trapetsiyada **K** nuqta **AV** tomonning o'rtasi. Agar trapetsiya **KS** chiziq bo'ylab kesilsa va **CBK** uchburchak **K** nuqta atrofida shunday aylantirilsinki, **KB** va **KA** bo'laklar ustma-ust tushsin. Bu holda trapetsiya qanday shaklga aylanadi. Shaklni chizib ko'rsating.




**Y. Tafakkurning refleksivligi**

Berilgan anagramma qaysi so'zdan iboratligini ko'rsating.

Anagramma – so'zlardagi harflar ketma-ketligini almashtirish orqali hosil qilingan harflar birikmasidir.

1. ig'sht
2. ashlk
3. yo'ni
4. ajim
5. umrh
6. atalab
7. abryqo
8. adtfra
9. edaraz
10. emnhta
11. o'qllnaam
12. eptshhaat
13. omotitslk
14. chuubchrka
15. amshluto

## JAVOBLAR TAHLILI

1) Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi.

2) Ko'rsatgichlarning shakllanganlik darajasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$K = \frac{m}{n}$ K – ko'rsatgichning shakllanganlik koeffitsienti;
**m** - to'g'ri javoblar soni; **n** - vazifadagi topshiriqlar soni.

3) Har bir ko'rsatgich va barcha vazifalarning bajarilish samaradorligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$P = \frac{t}{m}$

P – samaradorlik koeffitsienti;
**t** - sarflangan vaqt; **m** - to'g'ri javoblar soni.

### Umumiy natijalar jadvali:

| № | Tekshiriluvchi | I . Tushun-chalarni tasniflash. | | | II. Tushun-chalarning mantiqiy munosabati | | | III. Mantiqiy tahlil | | | IY.Fazoviy tafakkur | | | Y. Tafakkur-ning reflek-sivligi | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Shakllanganlik darajasi | Sarflangan vaqt (t) | Samaradorlik | Shakllanganlik darajasi | Sarflangan vaqt (t) | Samaradorlik | Shakllanganlik darajasi | Sarflangan vaqt (t) | Samaradorlik | Shakllanganlik darajasi | Sarflangan vaqt (t) | Samaradorlik | Shakllanganlik darajasi | Sarflangan vaqt (t) | Samaradorlik |
| | | | | | | | | | | | | | | | | |

### Foydalaniladigan adabiyotlar:


1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Немов Р.С. «Практическая психология» М. «Владос» 1998.
5. Рогов Е.И. «Настольная книга практического психолога» М. «Владос» 1999.
6. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
7. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
8. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 15. EMOSIYA VA HIS-TUYG’ULAR

**Mashg’ulot maqsadi:** Talabalar bilan shaxsning ichki kechinmalari va ularning shakllari haqidagi bilimlar majmuasi to’g’risida fikr almashish. «emotsiya», «his», «kayfiyat», «affekt», «stress» kabi tushunchalarni tahlil qilish. Hissiyotning kishi faoliyatiga ta’siri, kishi faoliyati natijalarining hissiyotga ta’sirini o’rganish. Hissiyot va uni boshqarish muammolarini o’rganish va ularni talabalar tomonidan amaliyotda qo’llana olinishini ta’minlash.

### MASHG’ULOT REJASI:

1. Hissiyotning tabiati va turlari.
2. emotsional holatlar va ularning shakllari.
3. Hislar va ularning turlari.
4. Hissiyotni boshqarish va uni pedagogik jarayonda hisobga olish.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:


1. Davletshin M.T., To’ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul’tetlar talabalari uchun ma’ruza matnlari. Buxoro, 1999.
7. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.


## Мавзу 16. IRODA.

**Mashg’ulot maqsadi:** Talabalar bilan shaxsning irodasi, uning hayotdagi o’rni va ahamiyati, irodaviy harakatlar va sifatlarning shakllanishi haqida fikr almashish va ularni talabalar tomonidan amaliyotda qo’llana olinishini ta’minlash.

### MASHG’ULOT REJASI:

1. Iroda haqida tushuncha.
2. Irodaviy akt va uning tuzilishi.
3. Iroda va shaxs erkinligi, tavakkal qilish kabi xususiyatlar.
4. Shaxsning irodaviy xususiyatlari va ularni shakllantirish.

## Мавзу 17. TEMPERAMENT.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalar bilan shaxs individualligining asosini tashkil qiluvchi xususiyat – temperament, u to'g'risidagi nazariyalar, temperamentning oliy nerv faoliyati bilan bog'liqligi to'g'risida fikr almashish.

### MASHG'ULOT REJASI.

1.Temperament haqida tushuncha.
2.Temperament haqidagi nazariyalar:
   a) morfologik;
   b) gumoral;
   c) konstitutsional
3. ONF (oliy nerv faoliyati) va temperament.
4. Temperament tiplarining psixologik xususiyatlari.
5. Talabalar temperamentining tiplarini aniqlash metodikasini o'tkazish.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:


1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.
7. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.


### TEMPERAMENT TIPLARINI ANIQLASH.

**Ishning maqsadi:** talabalarni temperamentni o'rganish metodikasi bilan tanishtirish.

Talaba temperament xususiyatlari aks ettirilgan jadvalni diqqat bilan o'qiydi.

**T YE M P YE R A M YE N T   X U S U S I YA T L A R I**

| № | | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | G'ayrat- shijoatga (energiyaga) to'lalik | juda katta | katta | yetarli | kam |
| 2. | Energiyani ixtiyorsiz boshqarish | bir tekis, emas tartibsiz | bir tekisda | bir maromda, sekin | kuchsiz, bir tekis emas |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3. | Energiyani sarf qilish tezligi | tez, bir tekis emas | bir maromda | bir xilda, sekin | tez, kam-kam ravishda |
| 4. | Modorsizlanish (kuchsizlanish) | tez, katta zo'riqishdan keyin | sekin | juda sekin | tez, katta bo'lmagan zo'riqishdan keyin |
| 5. | Energiyani tiklash | tez | bir maromda | bir maromda | sekin |
| 6. | Nerv psixik jarayonlarning turg'unligi | muvozanatsiz | muvozanatli | muvozanatli | muvozanatsiz |
| 7. | Nerv psixik jarayonlarning ko'chish tezligi | juda yengil | juda yengil | kam ko'chuvchan, yengil | sekin |
| 8. | Dinamik stereotip ning o'zgarish tezligi | tez, ammo yengil emas | yengil | sekin | sekin, qiyin |
| 9. | Hissiy kechinmalar | qisqa muddatli | yuzaki, qisqa muddatli | kuchsiz, ichki | chuqur, uzoq muddatli |
| 10. | Affektivlik | yaqqol | yo'q | yo'q | unchalik katta emas |
| 11. | Kayfiyat | xushchaqchaq, tetik, jangovor | xushchaqchaq, xursand | bir xil, vazmin | o'zgaruvchan, g'amgin, jo'shqin |
| 12. | Reaktivlik | kuchliga kuchli | reaktsiyasi mos keladi | kuchliga kuchsiz | har xil, bir maromda emas |
| 13. | Harakatlari (mimika, yurishi, qo'l harakatlari) | tez, bir tekis | bir maromda | bir xilda, sekin | har xilda, bir maromda emas |
| 14. | Nutq | baland ovozli | tetik | sekin | tonsiz |
| 15. | Chidamlilik | kuchsiz | o'rtacha | juda katta | kuchsiz |
| 16. | Adaptatsiya (moslashuv) | yaxshi | a'lo | sekin | qiyin |
| 17. | Kirishib ketishish (dilkashlik) | yaxshi | dilkash | dilkash emas | odamovi, tortinchoq |
| 18. | Agressivlik | tajovuzkor | Tinchlik sevar | mulohazali | o'zini yo'qotib qo'yadi |
| 19. | Tanqidga munosabat | tajovuzkor | vazmin | befarq | o'zini kamsitilgandek sezadi |
| 20. | Aktivlik | qiziquvchan yoki ehtirosli | g'ayratli (shijoatli) yoki ko'p gapiradi | o'ta mehnatkash | faolligi sust va bir tekis yuzaga chiqmaydi |
| 21. | Yangilikka munosabat | yaxshi | farqsiz | rad etish | jo'shqin |
| 22. | Xavf-xatarga munosabat | tavakkalchi | mulohazali | sovuqqon | vahimachi |
| 23. | Maqsadga erishish | kuchini to'liq sarflaydi | sharoitni hisobga olgan holda | sekin, tirishqoq | qiyinchilikdan qochadi |
| 24. | O'zaro yordam va o'zini baholash | oshirib baholaydi | o'zaro yordamni oshirib baholaydi | to'g'ri, imkoniyatga mos ravishda | o'ziga ishonmaydi, boshqalarga suyanadi |
| 25. | Ta'sirlanuvchanlik gumonsirash | biroz | unchalik katta emas | juda kam | juda katta |

**Ishning borishi:** Sinaluvchi jadvalda ko'rsatilgan xususiyatlarning o'zida qay darajada rivojlanganligini aniqlaydi va javoblar varaqasidagi shunga mos ustundagi sonni aylanaga oladi.

**Javoblar varaqasi.**

| № | 1 ustun | 2 ustun | 3 ustun | 4 ustun |
|---|---|---|---|---|
| 1. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 2. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 3. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 4. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 5. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 6. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 7. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 8. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 9. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 10. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 11. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 12. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 13. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 14. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 15. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 16. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 17. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 18. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 19. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 20. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 21. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 22. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 23. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 24. | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 25. | 1 | 2 | 3 | 4 |

**Natijalarni qayta ishlash.**

Sinaluvchining qaysi ustundagi sonlarni ko'p belgilagani hisobga olinadi. Har bir ustun temperamentning ma'lum tipiga mos keladi.

1-ustun temperamentining xolerik tipiga mos keladi.
2- ustun sangvinik tipiga mos keladi.
3- ustun flegmatik tipiga mos keladi.
4- ustun melanxolik tipiga mos keladi.

Shunday qilib sinaluvchining temperament tiplarining qaysi biriga mansubligi aniqlanadi.

## O'QUVCHINING TEMPERAMENTINI O'RGANISH
## TEMPERAMENT PASPORTI

Talaba temperamentining tipini aniqlash uchun qo'llaniladi.

**Qo'llanilish tartibi**: Quyida berilayotgan hukmlar (fikrlar) talabalarga o'qib beriladi (yoki savolnoma qog'ozda beriladi). Talabalar ularning o'zida mavjud yoki mavjud emasligini «+» yoki «-» bilan belgilaydilar.

Javoblarni belgilashda talaba ko'pincha o'zini qanday tutishini hisobga olishi kerak.

**SANGVINIK**

1. Quvnoq, xushchaqchaq.
2. G'ayratli, ishbilarmon.
3. Ko'pincha boshlagan ishini oxiriga yetkazmaydi.
4. O'zini oshirib (ortiqcha) baholashga moyil.
5. Yangilikni tez ilg'ab qabul qilishga qodir.
6. Qiziqishlari va mayllari turg'un emas (o'zgaruvchan)
7. Muvaffaqiyatsizlik va noxushlikni tez unutadi.
8. Turli sharoitlarga oson moslashuvchan
9. Har qanday yangi ishga zo'r qiziqish bilan kirishadi.
10. Har qanday yangi ishni tez boshlaydi va tez boshqa ishga o'tadi.
11. Agar ish qiziqtirmay qo'ysa darrov hafsalasi pir bo'ladi (ko'ngli soviydi).
12. Kundalik bir xil, sermashaqqat ishlar joniga tegadi.
13. Dilkash, mehribon, o'zi uchun yangi odamlar orasida ham tortinmaydi.
14. Bardoshli va ishchan.
15. Murakkab, kutilmagan vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ymaydi.
16. Doimo yaxshi kayfiyatda.
17.Uyquga tez ketadi va tez uyg'onadi.
18.Ko'pincha fikrini bir joyga to'play olmaydi, shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qiladi.
19. Ba'zida ko'p narsalarga yuzaki qaraydi va fikri tez chalg'iydi.
20. Tajovuzkor emas.

**XOLERIK**

1. Sabrsiz, hovliqma.
2. O'zini tuta olmaydigan, serjahl.
3. Betoqat.
4. Odamlar bilan munosabatda keskin va betga aytar.
5. Qat'iyatli va tashabbuskor.
6. Qaysar, o'jar.
7. Tortishuvlarda topqir, hozirjavob.
8. Ishni bir maromda olib bormaydi, goh jo'shib ketadi, goh tashlab qo'yadi.
9. Kek saqlamaydi.
10. Tez, jo'shqin, poyma-poy nutqqa ega.
11. Muvozanatsiz, qiziqqonroq.
12. Tavakkal qilishga moyil.
13. Juda tajovuzkor.
14. Kamchiliklar g'ashiga tegadi.
15. Ifodali mimikaga ega.
16. Tez qaror qabul qilib, tez ishga kirishishga qodir.
17. Tinimsiz yangilikka intiladi.
18. Shiddatli va keskin-keskin harakat qiladi.
19. O'z maqsadiga yetish uchun sabot bilan intiladi.

20. Kayfiyati tez-tez o’zgarib turadi.

**FLEGMATIK**

1. Bosiq va sovuqqon (og’ir tabiat).
2. Ishlarni shoshmay bafurja bajaradi.
3. ehtiyotkor va andishali.
4. Kutib tura oladi.
5. Kamgap, bekordan-bekorga gapiravermaydi.
6. Osoyishta, shoshmay, bir maromda gapiradi, hissiyoti mimikasi ko’zga tashlanmaydi.
7. O’zini tutib biladi va sabr-toqatli.
8. Boshlagan ishini oxiriga yetkazadi.
9. O’z kuchini bekordan bekorga sarflamaydi.
10. O’rganib qolgan hayot tarziga, ish maromiga qattiq rioya qiladi.
11. Tutoqib ketishdan o’zini tuta oladi.
12. Maqtov va tanbehlar unga kam ta’sir qiladi.
13. Jahldor emas, o’z sha’niga aytilgan qo’pol hazillarga ham e’tibor bermaydi.
14. Qiziqishlari va munosabatlari o’zgarmas, bir xil.
15. Ishga sekin kirishadi va bir ishdan ikkinchisiga sekin o’tadi.
16. Hamma bilan bir xil munosabatda.
17. Hamma narsaga tartib va ozodalikni yoqtiradi.
18. Yangi sharoitga qiynalib moslashadi.
19. Sabr-toqatli.
20. Narsalarni ehtiyot qiladi.

**MELANXOLIK**

1. Uyatchan va tortinchoq.
2. Yangi vaziyatda o’zini yo’qotadi.
3. Notanish kishilar bilan tez topishib ketishi qiyin.
4. O’z kuchiga ishonmaydi.
5. Yolg’izlikdan zerikmaydi.
6. Muvaffaqiyatsizlikka uchrasa o’zini yo’qotib qo’yish va ezilish hissi paydo bo’ladi
7. Butun dardi o’z ichida.
8. Tez toliqadi.
9. Nutqi past, ba’zida ovozi arang eshitiladi. Muloyim
10. O’zi sezmagan holda hamsuhbati xarakteriga moslashadi.
11. O’ta ta’sirchan. Darrov ko’ziga yosh keladi. Ko’ngli bo’sh.
12. Maqtov va tanbehlar juda kuchli ta’sir qiladi.
13. O’zi va boshqalarga yuqori talablar qo’yadi.
14. Shubha bilan qarashga, badgumonlikka moyil.
15. Haddan tez ta’sirlanuvchan va tez yuragiga yaqin oladi.
16. Juda tez, arzimagan narsaga ham xafa bo’luvchi.
17. Indamas, kamgap, o’z fikrlarini hech kim bilan baham ko’rmaydi.
18. Faol emas va jur’atsiz.
19. Gap qaytarmay bo’ysunuvchi.

20. Atrofdagi odamlarda o'ziga nisbatan rahm, xayrixohlik, yordam berish hissini uyg'otishga harakat qiladi. O'ziga odamlarning rahmini keltirishni istaydi.

**Olingan natijalarni qayta ishlash:**
Har bir temperament tipi bo'yicha ijobiy javoblar soni hisoblanadi va quyidagi formulaga binoan hisoblanadi. eng yuqori ko'rsatgichga ega tip (ular bir nechta bo'lishi mumkin) o'quvchining temperament tipidir.

$$T = X\left(\frac{A_x}{A} * 100\ \%\right) + C\left(\frac{A_c}{A} * 100\ \%\right) + \Phi\left(\frac{A_\phi}{A} * 100\ \%\right) + M\left(\frac{A_м}{A} * 100\ \%\right)$$

Bu yerda: A - umumiy «+» lar soni,
$A_x$, $A_s$, $A_f$, $A_m$ – har bir temperament tipi bo'yicha «+»lar soni.
**Natijalar tahlili:**
Agar ma'lum temperament bo'yicha «+» lar soni:
16 - 20 ta bo'lsa, mazkur tipning yaqqol namoyon bo'lganini ko'rsatadi (juda kuchli rivojlangan);
11-15ta « + »- sezilarli darajada
6-10 ta « + » - birozgina bor.
**Yoki foizlarda olinganda (formula asosida).**
Agar ma'lum temperament bo'yicha:
**40% va undan yuqori bo'lsa, mazkur tip yaqqol ustunlik qiladi**
30-39%- yetarli darajada.
20-19%-o'rta darajada
10-19% - juda kam darajada.

## Мавзу 18. XARAKTER.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarning shaxs individualligining asoslaridan birini tashkil qiluvchi xususiyat bo'lgan xarakter to'g'risidagi bilimlarini tahlil qilish. Xarakterning mohiyatini va uning temperamentdan farqi va bog'liqlik tomonlarini ko'rib chiqish.

**MASHG'ULOT REJASI.**

1. Xarakter haqida tushuncha.
2. Xarakter haqidagi nazariyalar: frenologiya, fiziognomika, xiromantiya, konstitutsional, grafologiya.
3. Xarakter va temperament. Xarakterning tuzilishi.
4. Xarakterning shakllanishi va unga ta'sir qiluvchi omillar.
5. Xarakter aktsentuatsiyasi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.

3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Немов Р.С. «Практическая психология» М. «Владос» 1998.
5. Рогов Е.И. «Настольная книга практического психолога» М. «Владос» 1999.
6. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
7. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
8. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.
9. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## XARAKTERNI O'RGANISH METODIKASI

1. Qaysi biri siz uchun muhimroq?
a. kichikkina do'stlar davrasi;
b. ko'pgina o'rtoqlar davrasi.
2. Qanday kitoblar sizga ko'proq yoqadi?
a. qiziqarli syujetli;
b. odamlar ruhiy kechinmalari aks ettirilgan.
3. Ishda nimaga ko'proq yo'l qo'yishingiz mumkin?
a. kechikish;
b. xatoliklar.
4. Agar yomon ish qilib qo'ysangiz:
a. juda qayg'urasiz;
b. unchalik qayg'urmaysiz.
5. Odamlar bilan qanday chiqishasiz?
a. juda tez va oson;
b. sekin, ehtiyotkorlik bilan.
6. O'zingizni arazkash deb hisoblaysizmi?
a. ha;
b. yo'q.
7. Chin dildan kulishga moyilmisiz?
a. ha;
b. yo'q.
8. Siz qandaysiz?
a. kamgap;
b. sergap.
9. Siz ochiqmisiz yoki hislaringizni birovlardan yashirasizmi?
a. ochiqman;
b. yashiraman.

10. O’z his-kechinmalaringizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?
a. ha;
b. yo’q.
11. Ko’pchilik davrasida bo’lganda, Siz:
a. tinmay gapirasiz;
b. boshqalarni tinglaysiz.
12. Tez-tez o’zingizdan norozi bo’lib turasizmi?
a. ha;
b. yo’q.
13. Biror nimalarni tashkil qilishni yoqtirasizmi?
a. ha;
b. yo’q.
14. Sirlaringiz yozilgan kundalik tutishni hohlarmidingiz?
a. ha;
b. yo’q.
15. Biror narsaning qaroridan uni bajarishga tez o’tasizmi?
a. ha;
b. yo’q.
16. Kayfiyatingizni tez o’zgartira olasizmi?
a. ha;
b. yo’q.
17. O’zgalarni ishontirib, ularga o’z fikringizni o’tkazishni yaxshi ko’rasizmi?
a. ha;
b. yo’q.
18. Sizning harakatlaringiz:
a. tez;
b. sekin.
19. Siz bo’lishi mumkin bo’lgan noxush hodisalardan tashvishlanasiz?
a. tez-tez;
b. ba’zan.
20. Qiyin holatlarda Siz:
a. yordam so’rashga shoshilasiz:
b. hech kimga murojaat qilasiz.

endi javoblaringizni hisoblab chiqing.

**Metodikaning kaliti:**

Javoblar ichidagi quyidagilar Sizdagi ekstroversiyani ko’rsatadi: 1b, 2a, 3b, 4b, 5a, 6b, 7a, 8b, 9a, 10b, 11a, 12b, 13a, 14b, 15a, 16a, 17a, 18a, 19b, 20a. Mos kelgan javoblar sonini 5 ga ko’paytiring.

0 — 35 ballar — introversiya;
36 — 65 ballar — ambiversiya;
66 — 100 ballar — ekstraversiya.

# Мавзу 19. O’QUVCHI SHAXSINI O’RGANISH VA UNGA PSIXOLOGO-PEDAGOGIK XARAKTERISTIKA YOZISH.

1. Umumiy ma’lumotlar. Familiyasi, ismi va otasining ismi. Mutaxassisligi. Yoshi, sog’ligi va jismoniy rivojlanganligi. Oilaviy sharoiti: ota-onalari kimlar, ularning ma’naviy rivojlanganligi, ijtimoiy mavqei, moddiy jihatdan ta’minlanganligi, uy sharoitining o’qishga qulayligi va yetarliligi, ota-onalarining o’quvchiga munosabati (e’tiborli, mehribon, do’stona, qattiqqo’l va h.k.), o’quvchining uy yumushlariga yordam berishi.

2. O’qishga bo’lgan munosabati. Darslarda o’zini tutishi. Uy vazifalarini bajarishi. O’qituvchi va tarbiyachilarga munosabati. O’qishga qiziqishi. Sevgan fanlari. O’qishining motivlari. Fanlar bo’yicha o’zlashtirishi.

3. Aqliy rivojlanish darajasi. Kuzatuvchanligi va topqirligi. O’quv materialini tez tushunishi. O’zlashtirishining mustahkamligi. Materialni eslab qolish xususiyati va usullari.

Diqqatining xususiyatlari: to’planishi, barqarorligi, ko’chishi, taqsimlanishi va h.k, ularning mashg’ulotlar davomida yuzaga chiqishi.

Tafakkurining xususiyatlari: mustaqil fikrlashi, mavhum tafakkurining rivojlanganligi, materialni umumlashtira olishi, xulosa chiqarishi va h.k.

Nutqi, nutq tushunarliligi, so’z boyligi, madaniyatliligi, ilmiy atamalarni bilishi.

4. Xarakteri. Ma’suliyatliligi, o’z ishiga vijdonan munosabatda bo’lishi. To’g’ri so’zligi. Kamtarligi, odilligi, o’ziga ishonishi, o’ziga tanqidiy karay olishi. Dilkashligi yoki kamgapligi. Hamdardligi yoki toshbag’irligi. O’jarligi, talabchanligi.

Do’stlik hissining rivojlanganligi. O’zini tuta bilishi. Ja’surligi, qat’iyligi, juratliligi. O’z maqsadi uchun kurasha olishi.

Ta’sirga beriluvchanligi. O’zining yutuqlari va kamchiliklariga munosabati.

5. Temperamenti va hissiyoti. Temperamentining tipi: sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik. Hissiyotining kuchi va turg’unligi. Xursandchilik va xafachilikni boshdan kechirishi. Xushchaqchaqligi. Yangilikka munosabati. Yangi sharoitga, yangi odamlarga moslashishi. Ustunroq (doimiy) kayfiyati: quvnoq, g’amgin, ruhi tushgan, befarqlik va h.k. Kayfiyatining o’zgarish dinamikasi va tezligi.

6. Qiziqishlari va qobiliyatlari. eng yorqin, kuchli qiziqishlari. Qiziqishlarining turg’unligi va davomiyligi, chuqurligi, kengligi. O’qish va kasb bilan bog’liq qiziqishlari. O’quv predmetlari bo’yicha qiziqishlari va qobiliyatlari.

Maxsus qobiliyatlarining mavjudligi (san’atga, texnikaga, ijodiyotga ...). Bo’sh vaqtlarida shug’ullanadigan mehnat turi. Mehnat malakalarining rivojlanganligi (ishning ko’zini bilishi).

7. Jamoadagi o’zini tutishi. O’z jamoasiga munosabati. Jamoadagi mavqei (tutgan o’rni, avtoriteti, obro’si, ta’siri va h.k.). Jamoaning fikriga munosabati. Jamoaning shon-shuhrati va obro’si uchun kurashadimi? O’zini jamoaga qarama-

qarshi qo'yadimi? Kimlar bilan do'st? Do'stligining motivlari. Insonning qaysi xususiyatlarini qadrlaydi? Ideali bormi? Jamoat ishlari va topshiriqlariga munosabati. Intizomi. O'zini tutishi: xushmuomala, qo'pol, ko'p gapli, indamas, betga chopar, tortinchoq...

8. Ongi. Dunyoqarashi - dinga, jamiyatga, siyosatga, milliy masalalarga, iqtisodiy masalalarga va boshqalarga munosabati. Ishining va so'zining birligi. Jamiyatdagi faolligi. Hayotda nimaga yetishish uchun intiladi?

9. Xulosalar, takliflar va tavsiyalar. Rivojlantirish lozim bo'lgan ijobiy xususiyatlar. Bartaraf qilinishi lozim bo'lgan salbiy xususiyatlar. Individual yondoshish uchun nimalarga e'tibor berilishi lozim (o'qituvchi va tarbiyachilar tomonidan) ? Qanday yordamga muhtoj ?

## Мавзу 20. QOBILIYAT.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalar bilan shaxs individualligining asoslaridan birini tashkil qiluvchi xususiyat bo'lgan qobiliyat to'g'risida fikr almashish. Qobiliyatning psixologik tabiati, nerv-fiziologik asoslari, qobiliyatlarning rivojlanishi va turlari haqidagi turli nazariyalarni ko'rib chiqish.

### MASHG'ULOT REJASI.

1. Qobiliyat to'g'risida tushuncha. Qobiliyat to'g'risidagi nazariyalar.
2. Qobiliyatning sifat va miqdor xususiyatlari.
3. Qobiliyatlarning turlari.
4. Qobiliyat va layoqat. Qobiliyatlilik, talant, iste'dod tushunchalari va ularni aniqlash.
5. Qobiliyat va irsiyat. Talant va qobiliyatning shakllanishi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:


1. Davletshin M.T., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya T.; TDPU, 2002.
2. Ivanov M.E., ZufarovaP.I. Umumiy psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., 2008.
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Немов Р.С. «Практическая психология» М. «Владос» 1998.
5. Рогов Е.И. «Настольная книга практического психолога» М. «Владос» 1999.
6. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
7. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
8. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul'tetlar talabalari uchun ma'ruza matnlari. Buxoro, 1999.

9. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## O’QUVCHINING KASBGA MOYILLIGINI O’RGANISH.

**Mashg’ulotning maqsadi:**

Talabalarni o’quvchilarning kasbga moyilliklarini o’rganish metodlari bilan tanishtirish. Kasbga moyillikni o’rganish jarayonida keng qo’llaniladigan, Klimov Ye. tomonidan taklif qilingan kasblar klassifikatsiyasining («Inson-inson», «Inson-tabiat», «Inson-texnika», «Inson-belgilar tizimi», «Inson-badiiy obraz») mohiyatini tushuntirish. «Differentsial-diagnostik so’rovnoma»ni o’tkazish va olingan natijalarni tahlil qilish.

**JIHOZ:**

«Differentsial-diagnostik so’rovnoma» matni va javoblar varaqasi.

O’quvchining kasbga moyilligini o’rganish uchun Ye.A.Klimov tomonidan taklif etilgan «Differentsial -diagnostik so’rovnoma» (DDS) qo’llaniladi.

Kasb tanlash, kasbga yo’llash ishlari bilan uzoq yillar davomida shug’ullanib kelgan atoqli psixolog olim Ye.A.Klimov kasblarning besh asosiy tipini farqlaydi:

- **Odam - Tabiat** (qishloq xo’jaligi, agronom, biolog, veterinar, zoolog, geolog, ximik va sh.k.);
- **Odam - Texnika** (texnik - texnolog, quruvchi, elektrik, mexanik, mashinasoz, texnik va sh.k.);
- **Odam - Odam** (o’qituvchi, tarbiyachi, hamshira, vrach, jurnalist, huquqshunos, kutubxonachi, savdo xodimi va boshqalar);
- **Odam - Belgilar tizimi** (iqtisodchi, hisobchi, rejalovchi, texnik -dasturchi, operator, muharrir, matematik va sh.k.);
- **Odam - Badiiy obraz** (bezakchi - pardozchi, musiqachi, artist, rassom, rejissyor, tanqidchi va boshq.).

Bu metodika yordamida sinaluvchining faoliyat turlaridan qaysi birini ko’proq ma’qul ko’rishi va shunga mos ravishda qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi.

Undan psixologik - pedagogik tashxis qo’yish jarayonida, ya’ni hali kasbni o’zgartirish mumkin bo’lgan vaqtda foydalanish va uning natijalariga asoslangan holda, bolaga to’g’ri maslahatlar berib, uni o’zining individual -psixologik xususiyatlariga ko’proq mos keladigan kasb -hunarga yo’llash maqsadga muvofiq bo’ladi. Sinaluvchilar ularga berilgan ko’rsatmaga binoan so’rovnomada keltirilgan kasblardan birini tanlash orqali o’z javoblarini berishlari kerak. Quyida so’rovnoma matni va javob varaqasi berilgan. Javob varaqasi (u ayni vaqtda kalit vazifasini ham bajaradi) oldin tayyorlab qo’yilgan bo’lishi kerak. Tadqiqot o’tkazish uchun lozim bo’lgan vositalar tayyor bo’lganidan so’ng quyidagi ko’rsatmani berish orqali tadqiqotni boshlash mumkin bo’ladi.

**Ko’rsatma**: «Faraz qilaylik tegishli ta’lim olganingizdan so’ng, Siz har qanday ishni bajara oladigan bo’lasiz. Agar Sizga taklif qilingan ikki imkoniyatdan faqat birini (ulardan biri yoki ikkalasining ham sizga yoqishi yoki yoqmasligidan

qat’iy nazar) tanlashingizga to’g’ri kelgudek bo’lsa, unda Siz qaysi birini ma’qul ko’rgan bo’lardingiz?

O’z javoblaringizni, javoblar varaqasining tegishli kataklarida qayd etilgan tartib raqami va harfini doira ichiga olib qo’yish bilan bildiring. Imkon qadar tezroq ishlashga va javoblaringizda samimiy bo’lishga harakat qiling».

**«Men ma’qul ko’raman»**

| | | |
|---|---|---|
| **1a**. Jonivorlarni parvarish qilish | yoki | **1b**. Mashina, asboblarga xizmat ko’rsatish (qarash, sozlash). |
| **2a**. Bemor kishilarga yordam berish. | yoki | **2b**. Jadvallar, sxemalar va komp’yuterlar uchun dasturlar tuzish |
| **3a**. Kitoblar, plakatlar va boshqa badiiy bezash ishlarida ishtirok etish. | yoki | **3b**. O’simliklarning o’sishini, holatini va rivojlanishini kuzatish. |
| **4a**. Materiallar (yog’och, metal, plastmassa va h.k.)ga ishlov berish. | yoki | **4b**. Tayyor buyumlarni iste’molchilarga yetkazib berish (sotish, reklama qilish). |
| **5a**. Ilmiy- ommabop kitoblarni va maqolalarni muhokama qilish. | yoki | **5b**. Badiiy kitoblarni (yoki p’esa, kontsertlarni) muhokama qilish |
| **6a**. Yosh, zotdor jonivorlarni yetishtirish. | yoki | **6b**. Tengqurlar (yoki o’zidan kichiklarga) biror ish-harakatning bajarilishini (mehnat, sport, o’qish) o’rgatish. |
| **7a**. Rasm, tasviriy san’at asarlaridan nusxa ko’chirish (yoki musiqa asboblarini sozlash). | yoki | **7b**. Har xil yuk tashuvchi vositalarni boshqarish (traktor, yuk avtomobil, teplovoz va h.k.) |
| **8a**. Odamlarga kerakli ma’lumot-larni yetkazib berish va tushuntirish (ekskursiya va ma’lumotlar byurosida). | yoki | **8b**. Ko’rgazma, peshtaxtalarni bezash (yoki kontsert va p’esalarni tayyorlash)da ishtirok etish. |
| **9a**. Har xil buyumlarni tuzatish, ta’mirlash (kiyim, texnika, uy joy). | yoki | **9b**. Matnlar, jadvallar va rasmlardagi xatolarni qidirib topish va ularni tuzatish. |
| **10a**.Jonivorlarni davolash. | yoki | **10b**.Hisob-kitob ishlari bilan shug’ullanish. |
| **11a**. O’simliklarning yangi navlarini yaratish. | yoki | **11b**.Sanoat mollarining (mashina, kiyim-kechak, inshootlar, oziq-ovqat mahsulotlari) yangi turlarini loyihalashtirish va yaratish. |
| **12a**. Odamlar orasidagi nizo, kelishmovchiliklarni hal qilish (ishontirish, tushuntirish, rag’batlantirish). | yoki | 12b. Chizma, sxema, jadvallarni tahlil qilish (tekshirish, tartibga keltirish, aniqlik kiritish). |
| **13a**. Badiiy havaskorlik to’garaklari ishini kuzatish va boshqarish. | yoki | **13b**. Mikroblarning hayotini kuzatish va o’rganish. |

| | | |
|---|---|---|
| **14a**. Tibbiyot asboblari bilan ishlash va ularni sozlash. | yoki | **14b**. Jarohatlangan kishilarga tibbiy yordam ko'rsatish (kuyganda, jarohatlanganda va boshqa hollarda). |
| **15a**. Kuzatayotgan voqealar, hodisalar, ob'ektlar haqida aniq hisobot tuzish (og'zaki yoki yozma). | yoki | **15b**. Kuzatgan yoki tasavvur qilgan voqea va hodisalarni badiiy ravishda tasvirlab berish. |
| **16a**. Kasalxonada laboratoriya analizlarini bajarish. | yoki | **16b**. Bemorlarni qabul qilish, ko'rish, suhbatlashish, davo choralarini belgilash. |
| **17a**. Xona devorlari, buyumlar sirtini bo'yash va bezash. | yoki | **17b**. Mashinalar, asboblarni (binolarni) yig'ish, montaj qilish. |
| **18a**. Tengqurlar va kichik yoshdagilar uchun ekskursiyalar, madaniy dam olish, sayohatlar tashkil qilish. | yoki | **18b**. Sahnalarda o'ynash va kontsertlarda ishtirok etish. |
| 19a. Chizmalarga qarab detallar, buyumlar (mashinalar, kiyimlar) tayyorlash, uy qurish. | yoki | **19b**. Chizmachilik bilan shug'ullanish, chizma va kartalardan nusxa ko'chirish. |
| **20a**. O'simliklar kasalliklari va o'rmon , bog' zararkunandalariga qarshi kurash olib borish | yoki | **20b**. Klavishli mashinkalarda (teletayp, yozuv mashinkasi, EHM) ishlash. |

**Differentsial -diagnostik so'rov javob varaqasi (kaliti)**

| Tabiat | Texnika | Inson | Belgilar sistemasi | Badiiy obraz |
|---|---|---|---|---|
| 1a | 1b | 2a | 2b | 3a |
| 3b | 4a | 4b | 5a | 5b |
| 6a | | 6b | | 7a |
| | 7b | 8a | | 8b |
| | 9a | | 9b | |
| 10a | | | 10b | |
| 11a | 11b | 12a | 12b | 13a |
| 13b | 14a | 14b | 15a | 15b |
| 16a | | 16b | | 17a |
| | 17b | 18a | | 18b |
| | 19a | | 19b | |
| 20a | | | 20b | |

**Differentsial - diagnostik so'rov natijalarini qayta ishlash**

DDS savollari shunday tartibda guruhlanganki, ularga berilgan javoblar faoliyatning turli sohalarini farqlash imkonini beradi.

Sinaluvchilarga yuqorida ko'rsatilgan javob varaqasi tarqatiladi va ular ko'rsatmada ta'kidlanganidek, o'z javobini tegishli raqam va harfni doira ichiga

olib belgilaganlaridan so'ng, javob varaqalari yig'ib olinadi. Ular tadqiqotchi tomonidan qayta ishlab chiqilishi ham mumkin ,yoki natijalarni qayta ishlashda sinaluvchilarning o'zlaridan ham foydalanish mumkin. Bunda ularning o'zlari o'z javob varaqasidagi har bir ustun bo'yicha belgilangan javoblar miqdorini hisoblab chiqadilar. Qaysi ustun bo'yicha belgilangan javoblar sonining ko'p bo'lishi sinaluvchining shu toifa kasblarga moyilligini bildiradi. Agar hamma ustunlar bo'yicha javoblar miqdori bir xil bo'lib chiqsa, bu qiziqishlar yoyilib ketganligini, u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishning shakllanmaganligini ,yoki yorqin ifodalangan ustunlikning yo'qligini bildiradi. Bunday hollarda tadqiqotdan so'ng sinaluvchi bilan bafurja suhbatlashish, unga qiziqishlarini aniqlab olishga yordam berish lozim.

Agar sinaluvchida u yoki bu kasbga moyillik yorqin ifodalangan bo'lsa va u aniq bir kasbni tanlagan bo'lsa, unda aynan shu kasbni tanlash motivi qanday ekanligini bilish zarurati ham yuzaga kelib qolishi mumkin.

## Мавзу 21. O'QUV GURUHINI O'RGANISH.

### O'quv guruhini o'rganish va uning psixologo-pedagogik tavsifnomasini yozish.

1. Guruh talabalari haqidagi umumiy ma'lumotlar: umumiy soni, o'rtacha yoshi, ikkinchi yil o'qiyotganlar soni, boshqa guruhlardan o'tganlar soni, harbiy xizmat safidan qaytganlar soni, yigit va qizlar soni. Guruh rahbari.
2. O'qish faoliyati: Umumiy o'zlashtirishi, tartib intizomi, guruh rahbarining talablari, guruh faollarining talabchanligi, o'zaro yordam va uning shakllari, o'qish jarayonidagi salbiy tomonlar: ko'chirish, darsga kelmaslik, uy vazifasini vaqtida bajarmaslik.
3. Guruhning o'qishdan tashqari vaqtdagi hayoti: hozirgi siyosiy masalalarga qiziqishi, muzikaga, san'atga, adabiyotga, sportga va h.k. qiziqishlari. Bu qiziqishlarning yuzaga chiqish shakllari: suhbatlar, bahslar, musobaqalar.
4. Ijtimoiy foydali mehnat turlari: ongli ravishda ishtirok etish. Shanbaliklar va h.k.
5. Guruh faollarining ishi: guruh sardorining, kasaba uyushmasi va h.k. ishi. Ularning mustaqilligi, tashabbuskorligi, o'ziga va boshqalarga talabchanligi, o'rtoqlari orasidagi obro'si. Tashkilotchilik qobiliyatlari. Boshqalarga nisbatan g'amxo'rligi. Shaxslararo munosabatda tutgan o'rni.
6. Guruhda norasmiy liderlarning mavjudligi: ularning o'zaro munosabati. Ularning guruhga ta'siri. Guruh faollari bilan ularning munosabati. Guruhda guruh tomonidan inkor qilingan talabalarning mavjudligi va sabablari. Ularni jamoaga qo'shish yo'llari. Guruhdagi autsayderlar mavjudligi sabablari.
7. Jamoadagi o'zaro munosabatlar: jipslik darajasi, fikran birligi (nima masalada), o'zaro talabchanligi, do'stona munosabatlari, o'zaro hurmat, guruhda mayda guruhchalarning mavjudligi, soni, tarkibi, tuzilishi, sabablari. Yigitlar va qizlar orasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyati.

8. Guruh rahbarining shaxsiy xususiyatlari va uning guruhga ta'siri: umumiy madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, talabalar psixologiyasini bilishi, talabalarning qiziqishini bilishi, rahbarlik usuli. Talabalar orasidagi obro'si.

9. Guruh talabalari orasida ruy bergan voqealardan birini misol keltirib, tahlil qilish.

10. Umumiy xulosalar: guruhning rivojlanganlik darajasi (diffuz, assotsiatsiya, korporatsiya, kollektiv). Guruhdagi psixologik muhit. Jamoa hayotidagi asosiy kamchiliklar. Guruh a'zolari orasidagi nizolar va ularni bartaraf qilish yo'llari.

## Мавзу 22. YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING PREDMETI.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalar bilan yosh va pedagogik psixologiyaning predmetining tarixi, tuzilishi, tadqiqot metodlari va vazifalari bilan fikr almashish. Ularning talabalar tomonidan kelgusi faoliyat jarayonida tadbiq eta olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

### MASHG'ULOT REJASI

1. Yosh va pedagogik psixologiyaning predmetining rivojlanish tarixi.
2. Ilmiy psixologik maktablar.
3. Yosh va pedagogik psixologiyaning predmetining tuzilishi.
4. Yosh va pedagogik psixologiyaning predmetining nazariy va amaliy vazifalari .

### Foydalaniladigan adabiyotlar:


1. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., To'ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G'oziev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T.,O'qituvchi, 1995
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.


## Мавзу 23. SHAXS SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT MUAMMOLARI.

**Mashg'ulot maqsadi:** Shaxs taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari va ular haqidagi nazariyalar, o'tish yoshlari haqidagi bilimlarni va mustahkamlash. va ularni talabalar tomonidan amaliyotda qo'llana olinishini ta'minlash.

## MASHG’ULOT REJASI.

1.Shaxs taraqqiyoti haqidagi nazariyalar (biologik, psixologik, psixoanalitik nazariyalar).
2.Psixik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchlar.
3. Yosh haqida tushuncha. Yoshga ta’sir qiluvchi omillar. Shaxs taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari.
4. Yosh davrlari va ularning psixologik xarakteristikasi.
5. O’tish yoshlari (taraqqiyotdagi inqiroz davrlari)
6. Senzitiv yoshlar.

## Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G., Do’stmuxamedova Sh.A., To’ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G’oziev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T.,O’qituvchi, 1995
3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

# Мавзу 24. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI.

**Mashg’ulot maqsadi:** Talabalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalar o’sishining umumiy shart-sharoitlari to’g’risida, ularning psixik xususiyatlari, hamda psixik jarayonlaridagi o’ziga xos xususiyatlar to’g’risida fikr almashish.

## MASHG’ULOT REJASI.

1.Maktabgacha yoshdagi bolalar psixik taraqqiyoti.
2.Bog’cha yoshidagi bolalar o’yinining psixologik xususiyatlari.
2.Bog’cha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi.
3.Bolalarni maktabga psixologik jihatdan tayyorlash.

## Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G., Do’stmuxamedova Sh.A., To’ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G’oziev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T.,O’qituvchi, 1995
3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.

5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 25. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalar bilan kichik maktab yoshidagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari to'g'risida, ularning psixik xususiyatlari, hamda psixik jarayonlaridagi o'ziga xos xususiyatlar to'g'risida fikr almashish.

### MASHG'ULOT REJASI.

1. Kichik maktab yoshi davrida psixik taraqqiyot.
2. Maktabga moslashish davrida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar.
3. O'qish faoliyati kichik maktab yoshi davridagi asosiy faoliyat turi sifatida.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish jarayonlarining rivojlanishi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., To'ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G'oziev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T.,O'qituvchi, 1995
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 26. O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK TARAQQIYOT.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalar bilan o'smirlik davridagi fiziologik va psixik o'zgarishlar va ularning sabablari, inqiroz yoshining o'ziga xos xususiyatlari, vujudga keladigan ziddiyatlar va ularni to'g'ri bartaraf etish yo'llari, shaxs sifatida shakllanish jarayoniga to'g'ri ta'sir ko'rsatish yo'llari to'g'risida fikr almashish.

### MASHG'ULOT REJASI.

1.O'smirlik yoshi to'g'risida umumiy tushuncha. O'smirlarning biologik o'sishi.
2.Akseleratsiya nazariyalari.
3.O'smirlik yoshida shaxsning shakllanishi. O'smirning aqliy kamoloti.

4.O’smir psixologiyasida asosiy ziddiyatlarning paydo bo’lish shart-sharoitlari ularni hal etish shart-sharoitlari.
5.O’smirlik yoshidagi xarakter aktsentuatsiyasining paydo bo’lish shart-sharoitlari va uni bartaraf etish yo’llari.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**


1. Davletshin M.G., Do’stmuxamedova Sh.A., To’ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G’oziev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T.,O’qituvchi, 1995
3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.


## Мавзу 27. O’SPIRIN SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

**Mashg’ulot maqsadi:** Talabalar bilan o’spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari, shaxsning kamol topishi, o’z-o’zini anglashning o’sishi, kasb tanlashga bo’lgan munosabatlar to’g’risida fikr almashish. Talabalarning professional yo’nalganlik darajalari, kasb tanlashga bo’lgan munosabatlarini o’rganish.

### MASHG’ULOT REJASI.

1.Ilk o’spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari.
2.Ilk o’spirinlik yoshida shaxsning kamol topishi.
3.Ilk o’spirinlar aql-idrokining xususiyatlari.
4. O’spirinlik yoshida ijtimoiylashuv jarayonining kechishi.
5.Ilk o’spirin va kasb tanlash.

## O’QUVCHILARINING PROFESSIONAL YUNALGANLIK DARAJASINI O’RGANISH.

**Mashg’ulot maqsadi**: Talabalarning professional yo’nalganlik darajasini baholash.

**Tekshiriluvchiga ko’rsatma:**

Quyida berilgan savollarni va uning javob variantlarini diqqat bilan o’qing!

Sizning fikringizni eng ko’p aks ettiradigan javob variantini tanlab, uning to’g’risidagi sonni (ballni) aylanaga oling!

| Savol | Javob varianti | Ball |
|---|---|---|
| 1. Tanlagan kasbingiz sizga yoqadimi? | juda ham | 4 |
| | yoqmaydi deb bo’lmaydi | 3 |
| | yoqadi deb bo’lmaydi | 2 |
| | yoqmaydi | 1 |
| 2. Mutaxassisligingiz bo’yicha darslar sizga zavq bag’ishlaydimi? | juda katta | 4 |
| | katta | 3 |
| | birozgina | 2 |
| | aytarli hech qanday | 1 |
| 3. Kelajakda qanday ish bilan shug’ullanishingizni bilasizmi? | juda yaxshi | 4 |
| | yaxshi | 3 |
| | birozgina | 2 |
| | bilmayman | 1 |
| 4. Tanlagan kasbingiz sizga qanday talablar qo’yishini bilasizmi? | juda yaxshi | 4 |
| | yaxshi | 3 |
| | birozgina | 2 |
| | bilmayman | 1 |
| 5. Mutaxassisligingiz bo’yicha qanday qobiliyatlaringiz borligini bilasizmi? | juda yaxshi | 4 |
| | yaxshi | 3 |
| | birozgina | 2 |
| | bilmayman | 1 |
| 6. Taxminan qancha oylik olishingizni bilasizmi? | juda yaxshi | 4 |
| | yaxshi | 3 |
| | birozgina | 2 |
| | bilmayman | 1 |
| 7. Mutaxassisligingiz bo’yicha malaka oshirishning qanday imkoniyatlari borligini bilasizmi? | juda yaxshi | 4 |
| | yaxshi | 3 |
| | birozgina | 2 |
| | bilmayman | 1 |
| 8. Kelajakdagi faoliyatingizning ijtimoiy ahamiyatini bilasizmi? | juda yaxshi | 4 |
| | yaxshi | 3 |
| | birozgina | 2 |
| | bilmayman | 1 |
| 9. Shaxsan siz uchun mutaxassislik bo’yicha darslar qanday ahamiyatga | juda katta | 4 |
| | katta | 3 |

| | | |
|---|---|---|
| ega? | birozgina | 2 |
| | aytarli hech qanday | 1 |
| 10. Shu o'quv yurtida o'qish sizga yoqadimi? | juda yoqadi | 4 |
| | yoqmaydi deb bo'lmaydi | 3 |
| | yoqadi deb bo'lmaydi | 2 |
| | yoqmaydi | 1 |
| 11. Har qanday kasb yaratish, ijod qilish imkonini berishi kerak- mi? | ha | 4 |
| | yo'q deyish qiyin | 3 |
| | ha deyish qiyin | 2 |
| | yo'q | 1 |
| 12. Har qanday ish kelajakda professional o'sish imkonini berishi kerakmi? | ha | 4 |
| | yo'q deyish qiyin | 3 |
| | ha deyish qiyin | 2 |
| | yo'q | 1 |
| 13. Professional tayyorlanishga ko'p vaqt ajratasizmi (texnik to'garaklarda ishlashga, maxsus adabiyotlarni o'qishga)? | juda ko'p | 4 |
| | ko'p | 3 |
| | aytarli emas | 2 |
| | aytarli ajratmayman | 1 |
| 14. Uy vazifalarini bajarishda sizning mustaqillik darajangiz qanday? | o'z ishimni mustaqil rejalashtiraman va mustaqil bajaraman | 4 |
| | hamma vazifalarni mustaqil bajaraman | 3 |
| | men uchun gohida nazorat va maslahat kerak | 2 |
| | maslahatga muhtojman | 1 |
| 15. Har qanday ishda kishiga ma'lum professional mustaqillik berilishi kerakmi? | ha | 4 |
| | yo'q deyish qiyin | 3 |
| | ha deyish qiyin | 2 |
| | yo'q | 1 |
| 16. Uy vazifangizni boshqalar yordamisiz, mustaqil bajarish sizga zavq beradimi? | ha | 4 |
| | yo'q deyish qiyin | 3 |
| | ha deyish qiyin | 2 |
| | yo'q | 1 |

**Olingan natijalarni tahlil qilish:**

I. Har bir o'quvchi (talaba)ning professional yo'nalganlik indeksi (ko'rsatgichi) aniqlanadi. Buning uchun barcha savollarga berilgan javob variantlari yig'indisi hisoblanadi va quyidagi me'yor asosida baholanadi:

**64-48 ball -** professional yo'nalganlik yetarli rivojlangan

**48-32 ball** - professional yo'nalganlik yetarli rivojlanmagan

**32 va undan kam** - professional yo'nalganlik umuman rivojlanmagan.

II. Guruh bo'yicha o'rtacha ma'lumotlarni tahlil qilish uchun quyidagi jadval to'ldiriladi.

| Savol № | Tanlangan variantlar soni | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 4 | 3 | 2 | 1 |
| 1. | ***5*** | ***3*** | *7* | ***2*** |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| 5. | | | | |
| 6. | | | | |
| 7. | | | | |
| 8. | | | | |
| 9. | | | | |
| 10. | | | | |
| 11. | | | | |
| 12. | | | | |
| 13. | | | | |
| 14. | | | | |
| 15. | | | | |
| 16. | | | | |
| Ustundagi sonlar yig’indisi | ∑ | ∑ | ∑ | ∑ |
| Ko’paytmasi | ∑*4 | ∑*3 | ∑*2 | ∑*1 |

Masalan, guruh talabalaridan 5 kishi 1-chi savolning 1-chi variantini (4 ballik)tanlagan, 3 kishi 3-chi, 7 kishi 2-chi, 2 kishi1-chi variantlarni tanlagan. Biz bu ma’lumotlarni misol tariqasida jadvalda 5,3,7,2 qilib kiritdik (jadvalga qarang).

Shu tariqa boshqa savollarga berilgan javoblar soni kiritiladi. Jadvaldagi har bir ustun bo’yicha yig’indi hisoblanadi. 1-chi ustunning yig’indisi 4 ga, ikkinchisiniki 3 ga, uchinchisiniki 2 ga, birinchisiniki 1 ga ko’paytiriladi. Ko’paytmalar yig’indisi talabalar soniga **(n)** bo’linadi. Natija guruh bo’yicha professional yo’nalganlik darajasini ko’rsatadi.

$$Y = \frac{\sum *4 + \sum *3 + \sum *2 + \sum *1}{n}$$

64-48 professional yo’nalganlik yetarli rivojlangan
48-32 professional yo’nalganlik yetarli rivojlanmagan
32 va undan kam - professional yo’nalganlik umuman rivojlanmagan.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.G., Do’stmuxamedova Sh.A., To’ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G’oziev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T.,O’qituvchi, 1995
3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.

4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 28. TARBIYA PSIXOLOGIYASI .

**Mashg’ulot maqsadi:** Talabalar bilan tarbiya jarayonining mohiyati va mexanizmlari, o’quvchi tarbiyasiga ta’sir qiluvchi omillar, tarbiya jarayonini boshqarish va samarasini oshirish masalalari bo’yicha muhokama o’tkazish. va ularni talabalar tomonidan amaliyotda qo’llana olinishini ta’minlash.

### MASHG’ULOT REJASI.

1. Tarbiya psixologiyasining predmeti va vazifalari.
2. Tarbiyaga ta’sir qiluvchi omillar.
3. O’quvchilarni psixologik o’rganish.
4. Tarbiya jarayoniga qo’yiladigan psixologik talablar. O’z-o’zini tarbiyalash psixologiyasi.
5. Mehnat tarbiyasi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G., Do’stmuxamedova Sh.A., To’ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G’oziev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T.,O’qituvchi, 1995
3. Karimova V.. Psixologiya. O’quv qo’llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O’AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo’lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 29. TA’LIM PSIXOLOGIYASI.

Mashg’ulot maqsadi: Talabalar bilan ta’lim jarayonining psixologik komponentlari, o’qish faoliyatining motivlari, ta’lim tamoyillari, ta’lim metodlarining psixologik mohiyati haqidagi bilimlarni muhokama qilish. va ularni talabalar tomonidan amaliyotda qo’llana olinishini ta’minlash.

### MASHG’ULOT REJASI:

1. Ta'lim haqida tushuncha.
2. Ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar.
3. Ta'lim tamoyillari.
4. Ta'lim metodlari va ularning psixologik xarakteristikasi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., To'ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G'oziev E.G. Kasb psixologiyasi -T.,O'qituvchi, 2005
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.
6. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.

## Мавзу 30. O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarda pedagogik faoliyatning o'ziga xos psixologik xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish va ularni talabalar tomonidan amaliyotda qo'llana olinishini ta'minlash.

### MASHG'ULOT REJASI:

1. Bola tarbiyasida o'qituvchining tutgan o'rni.
2. Pedagogning kasbiy sifatlari.
3. Pedagogik qobiliyatlar.
4. Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari.
5. Pedagogik qobiliyatlarni diagnostika qilish metodlari.

**Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., To'ychieva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004.
2. G'oziev E.G. Kasb psixologiyasi . -T.,O'qituvchi, 2004
3. Karimova V.. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. «O'AJBNT» markazi, 2002. – 205 bet.
4. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ixtisosligi "Pedagogika" va "Psixologiya" bo'lmagan oliygohlarning talabalari uchun ma'ruza matnlari. Toshkent, 2000.
5. Mavlonov J.X. «Psixologiya» fanidan ma'ruzalar matni. Ta'lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo'nalish talabalari uchun. Buxoro, 1999/2000.

6. Bakieva S.N. «Psixologiya» fanidan. Texnologik fakul’tetlar talabalari uchun ma’ruza matnlari. Buxoro, 1999.
7. Qosimov U.A. «Psixologiya» fanidan ma’ruzalar matni. Ta’lim sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo’nalish talabalari uchun. Buxoro, 2004.